




MARG'UBA
ABDULLAYEVA

MUMTOZ TARIXIY
POETIKA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

MARG'UBA ABDULLAYEVA

MUMTOZ TARIXIY POETIKA

*(70111401 – O'zbek tili va adabiyoti ixtisosligi magistratura
yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma)*

**G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2023**

UO'K 82.09-1

KBK 83.3

A 15

Mas'ul muharrir

Nasimxon Rahmonov – *filologiya fanlari doktori, professor.*

Taqrizchilar:

Homidjon Homidiy – *filologiya fanlari doktori, professor.*

Isroil Sulaymonov – *filologiya fanlari doktori.*

K.Mo'llaxo'jayeva – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Abdullayeva, Marg'uba

Mumtoz tarixiy poetika [Matn] / Marg'uba Abdullayeva. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy, uyi 2023. – 368 b.

“Mumtoz tarixiy poetika” o'quv qo'llanmasi 70111401 – O'zbek tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan magistratura yo'nalishidagi talabalarga mo'ljallangan. Unda o'quv dasturida belgilangan ma'ruza mavzulari batafsil yoritilgan. Mumtoz tarixiy poetika ilmi – mumtoz nazariy manbalar, jahon adabiyotshunosligidagi yondashuvlar hamda mumtoz matn tahliliga oid qarashlarni o'zida ifoda etadi. O'quv qo'llanmada turkiy adabiyotga xos nazariy fikrlardan, xorijlik olimlarning adabiy tur va janrlarga oid tadqiqotlari va keyingi yillarda bu sohada himoya qilingan dissertatsion ishlardan ham unumli foydalanilgan. Bundan mumtoz badiiy asarlarni poetik o'rganishda, adabiy tur va janrlararo munosabatlarni yoritishda, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlashda foydalanish mumkin.

UO'K 82.09-1

KBK 83.3

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9961-1-5

© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy
uyi, 2023

SO'Z BOSHI

“Mumtoz tarixiy poetika” fani tavsifiy, tarixiy, nazariy poetika masalalarini ilmiy nuqtayi nazardan o'rganadi. Adabiy tur va janrlarning shakllanishi, janrlararo munosabat, shakl va mazmun birligi, badiiy san'atlar, she'r tizimi, aruz va barmoq vaznini turli davrlarda yaratilgan ilmiy-nazariy asarlar misolida tadqiq qiladi. Mumtoz adabiy asarlarning poetika masalalarini, badiiy matnni tarkibiy qismlarini o'rganadi. Mumtoz tarixiy poetika asoslaridan kelib chiqib, uning tahlil tamoyillarini belgilaydi, konkret matn tahlilida amal qilinadigan usul, uslub va qonuniyatlar ishlab chiqishni hamda ular asosida mumtoz badiiy asarni ilmiy tahlil qilishni nazarda tutadi.

Fanni o'qitishdan maqsad adabiyotshunoslik tarixida mumtoz tarixiy poetikani o'rganuvchi va badiiy matn tahlili bo'yicha shug'ullangan mavjud akademik maktablar faoliyatini o'rganish, mumtoz badiiy asarlar poetikasi manbalari (risola, tazkira, ilmiy asarlar, tadqiqotlar) ni o'rganish, mumtoz asarlarni tahlil qilishdagi mavjud yondashuvlar bilan tanishtirish, magistrantlarda mumtoz matnning struktural tahliliga kirishish orqali asar mohiyatini anglash va uni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish, mumtoz badiiy matnlarni tahlil va tadqiq etish, ular asosida ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish.

“Mumtoz tarixiy poetika” fani o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishidagi magistratura mutaxassisligida I, II semestrlarda o'qitiladi. Fan uch moduldan – tarixiy, nazariy va mumtoz poetika qismlaridan tashkil topgan. Poetika masalalari jahon adabiyotshunosligining nazariy asoslariga tayanib tahlil etiladi. Mumtoz nazariy manbalar o'rganilib, adabiy tur va janrlar, badiiy asarlar tahlili, obrazlar tizimi, badiiy ijod qonuniyatlari haqidagi nazariy qarashlar takomili haqida tasavvurga ega bo'ladilar. So'nggi yillarda yaratilgan ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiya va avtoreferatlar bilan tanishib, ilmiy tafakkurini boyitadi, mumtoz asarlarni poetik o'rganish ko'nikmasini hosil qiladilar. O'quv qo'llanmada talabalar olgan bilimlarni nazorat qilish uchun mavzular asosida test topshiriqlari ishlab chiqilgan.





1-MAVZU: ADABIYOTSHUNOSLIKKA OID FANLAR TIZIMIDA MUMTOZ TARIXIY POETIKANING O'RNI

Reja:

1. Kirish.
2. "Poetika" tushunchasi va uning vujudga kelishi.
3. Jahon adabiyotshunosligida poetikaning shakllanishi.
4. "Tarixiy poetika", "Nazariy poetika" va "Mumtoz poetika" ning yuzaga kelishi.

Tayanch so'z va iboralar: *adabiyotshunoslik, Aristotel, poeziya, poetika, ilm, san'at, tarixiy poetika, Veselovskiy, nazariy poetika, Potebnya, mumtoz poetika, istiloh, umumiy poetika, xususiy poetika, tavsifiy poetika, balog'at ilmi.*

Kirish. Adabiyotshunoslik ilmida mumtoz badiiy asar tahlili alohida tayyorgarlik talab qiluvchi ilmiy-amaliy jarayon bo'lib, buning uchun mumtoz poetikaga asos bo'lgan masalalarni o'rganish nazarda tutiladi.

Mazkur fan barcha tur va janrdagi mumtoz adabiy asarlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, zamonaviy adabiyotshunoslikda qo'llanilayotgan tahlil usullaridan foydalaniladi. Ushbu modul doirasida adabiyotshunoslikdagi ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari jalb qilinadi hamda kompyuter yordamida mumtoz asarni o'rganish tamoyillariga amal qilingan holda badiiy tahlilga kirishiladi. Jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda bu fan pedagoglarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi va barcha tahlil-tadqiq jarayonlariga ijodiy yondashishni shakllantirishga yordam beradi.

"Poetika" tushunchasi va uning vujudga kelishi. Poetika – badiiy asarlarda ifoda vositalari tizimi haqidagi fan, eng qadimgi adabiyotshunoslik fani. Keng ma'noda poetika adabiyot nazariyasi tushunchasiga to'g'ri keladi. Adabiyot nazariyasi sifatida poetika adabiy tur va janrlar xususiyatini, oqim va yo'nalishlar, uslub va metodlarni o'r-



ganadi hamda badiiylik darajasi o'rtasidagi ichki bog'lanish va o'zaro munosabat qonuniyatlarini tadqiq etadi.

"Poetika" so'zi yunoncha so'z bo'lib, *"ijod qilish san'ati"* ma'nosi-ni bildiradi. Poetika ijodning qanday qilib san'atga aylanishi haqidagi fandir.

Poetika atamasi ikki xil ma'noda ishlatiladi:

- 1) umumiy – keng ma'noda adabiyot nazariyasini bildiradi;
- 2) xususiy – tor ma'noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi bo'lib, adabiy asar haqidagi ta'limotdir.

Poetika fani muayyan badiiy asarning badiiy ta'sirchanlik qudratini tadqiq qiladi. Poeziya san'at bo'lsa, poetika shu san'atni ilmiy tahlil qiladi.

Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan musulmon Sharqi adabiyotida poetika masalasi har doim she'riyat ahlining diqqat markazida turgan. Muayyan ijodkorning badiiy salohiyati va iste'dodi haqida so'z borganda, uning tasvir obyekti sifatida nimalarni olgani emas, balki o'sha obyekt yoki predmetni qanday tasvirlagani muhim hisoblangan. Shu ma'noda u yoki bu ijodkor ijodiga yoxud muayyan badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalamoqchi bo'lgan g'oya qanday badiiy timsollar, vazn yoki qofiya vositasida bayon qilinganligi bilan birga she'riy asarda qo'llanilgan badiiy san'atlarning rang-barangligi, ularning asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qaratilgan¹.

Ensiklopedik lug'atda poetika so'ziga shunday ta'riflar berilgan:

Poetika (yun.) adabiyot nazariyasi bo'limi. Adabiy asar qurilishini va unda qo'llaniladigan estetik vositalar sistemasini o'rganadi.

Poetika:

- *umumiy poetika;*
- *tavsifiy poetika;*
- *tarixiy poetikaga bo'lingan.*

Umumiy poetika – har qanday asarning badiiy vositalari va qurilish qonuniyatlarini, janrga, adabiy tur va jinslarga qarab muallif niyatining mujassamlanish usullarini tadqiq etadi.

¹Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O'quv qo'llanma. – T., 2018.

Tavsifiy poetika – ayrim olingan bir muallif asarlarining yoki davrlar va yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniq-laydi.

Tarixiy poetika – adabiy-badiiy vositalar taraqqiyotini (*obraz-li ifodalar, shakllar, qofiyalar*) va kategoriyalarni (*badiiy qilib beril-gan zamon, makon, ritm*) o'rganadi. Keng ma'noda poetika adabiyot nazariyasiga to'g'ri keladi; tor ma'noda poetik til yoki badiiy nutqni tadqiq etishni anglatadi.

"Poetika" termini biron shoir, adabiy yo'nalish, millat, davr uchun xos bo'lgan badiiy vositalar sistemasini ham bildiradi (masalan, "*Navoiy poetikasi*", "*Rus realizmi poetikasi*")¹.

Balog'at ilmi. "Balog'at"ning lug'aviy ma'nosi "bulug' va vusul", ya'ni erishish va yetishishdir. Istilohda esa Qur'oni Karim va hadisi sharif tili bo'lmish arab tilining sir-asrorlarini ochuvchi, uning nozik va nafis jihatlarini ko'rsatuvchi, balog'ati va fasohatini anglashni o'rgatuvchi ilm "balog'at ilmi" deyiladi. U ilmi maoniy, ilmi bayon, ilmi badi'lardan iborat. Balog'at ilmi haqida hijriy ikkinchi asrdan bosh-lab kitoblar yozila boshlagan. Ana shu uch ilm bo'yicha Abu Ubay-da Ma'mar, Ja'far ibn Yaxyo, Sahl ibn Xorun, Abdulloh ibn Mu'tazz va boshqalar ilk kitob yozgan allomalardir².

Mumtoz adabiyotimiz tarixida poetika ilmi asosan uchta mustaqil sohadan iborat bo'lgan va bu "ilmlar uchligi" deb atalgan. Bular qu-yidagilardir:

- 1) ilmi aruz – she'rdagi vaznlar va ularning qonun-qoidolari haqi-da bahs yurituvchi soha;
- 2) ilmi qofiya – qofiya qonuniyatlari va turlari haqida ma'lumot beruvchi soha;
- 3) ilmi badi' – nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlar, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi soha.

¹ Энциклопедик лугат. 2 томлик. 2-том. Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси. – Тошкент, 1990. 102-бет.

² Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in medieval Arabic and Persian poetry. – London, 2003. – P. 45.

Mumtoz poetikaga doir dastlabki forsiy asar XI asrda yuzaga kel-gan. Bu Muhammad binni Umar Roduyoniy qalamiga mansub bo'lib, "Tarjimon ul-balog'a" deb ataladi. Bu fanning mazkur yo'nalishlari bo'yicha ko'plab ilmiy asarlar yaratilgan. Jumladan, Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a", Atoulloh Husayniyning "Badoye' us-sanoye'" asarlari.

Adabiy-badiiy mezonlar, ya'ni poetikaning muayyan qonun-qoi-dalari ayrim adabiy yo'nalish, oqim va maktablarda, alohida xalqlar-da (tasavvuf she'riyati poetikasi, xalq dostonchiligi poetikasi, ma'ri-fatparvarlik adabiyoti poetikasi, Sharq adabiyoti poetikasi, o'zbek adabiyoti poetikasi kabi), hatto buyuk qalam sohiblari ijodida pish-gan, puxta ishlanib, sayqal topgan (Navoiy poetikasi, Bobur poetikasi, Qodiriy poetikasi va b.).

O'zbek filologiyasi tarixida poetika bo'yicha dastlabki kuza-tishlar "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib), "Devonu lug'otit-turk" (M. Koshg'ariy) asarlaridan boshlangan. She'r nazariyasini rivoj-lantirishda Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mezon ul-avzon", Boburning "Muxtasar" asarlari muhim rol o'ynadi. Ada-biyot va san'atning yuksak badiiyligi, g'oyaviyligi uchun kurash borgan va borayotgan keyingi davrlarda o'zbek adabiyotshunos-lari ham poetika masalalarini tadqiq etishga katta e'tibor berdi-lar. Navoiy ijodi poetikasini o'rganishda V. Zohidov, M. Shayxzoda, A.Hayitmetov, Y.Is'hoqovlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega.

Aristotelning "Poetika" asari yaratilgandan buyon adabiyot asar-larini uch katta guruhga bo'lish ilmda qoida bo'lib qolgan. Bu gu-ruhlarning har biri hozirgi zamon adabiyotshunosligida "adabiy tur yoki adabiy jins" deb ataladi. Bu uch tur epos, lirika va dramadir. Ho-zirgi zamon o'zbek tilida epos – "nasr", lirika esa "she'riyat" ("poezi-ya") so'zlari bilan ifoda etiladi. Butun san'at va adabiyotni "tabiatdan nusxa ko'chirish" yoki "tabiatga taqlid", deb tushungan Aristotel, bu "nusxa ko'chirishning uch yo'l bilan amalga oshuvini "poetika"ning uchinchi bobida maxsus qayd etadi. "Taqlid etuvchi", ya'ni san'atkor hayotni, voqeani go'yo tashqaridan mushohada qiluvchi tarzida "xud-di Homerdek, voqeani uning o'zidan (ya'ni taqlidchidan) ajralgan bir



narsa sifatida" tasvirlashi mumkin. Bu xolis, obyektiv tasvir natijasi-da epos (epik tur) yaratiladi¹.

Jahon adabiyotshunosligida poetikaning shakllanishi. Jahon adabiyotshunosligida poetikaning vujudga kelishida Arastu hakim-ning benazir xizmatlarini unutmagan holda XX asr adabiyotshunosligida poetika qonuniyatlarining ustuvor bo'lishida V.M.Jirmunskiy-ning xizmatlari ham sezilarlidir. Chunki yangi yo'nalishdagi adabiyot nazariyasini shakllan-tirish arafasida uning asosiga qo'yilishi mumkin bo'lgan nazariy konsepsiyalarni aniqlashga ehtiyoj tug'ildi. Bir tomondan, Friche, Plexanov, Pereverzev nomi bilan bog'liq holda badiiy asar zaminiga ijtimoiy mazmunni yuklagan sotsial tanqid, ikkinchi tomondan, san'atga badiiy usullar yig'indisi sifatida qarashni asoslayotgan formal maktab vakillarining ishlari yangi nazariy tafakkurni shakllantirishga da'vo qila boshladi. Shu jihatdan *"Poetika nima"*, *"u ilmmi yoki san'at"*, *"agar ilm bo'lsa, qaysi tamoyillar asosida ish ko'radi"* kabi an'anaviy savollarga qayta javob izlanadi.

"Poetika" istilohi Arastu hakim davrida ilmiy muomalada bo'lib, quyidagi ma'nolarda qo'llanilgan:

- badiiy borliq hosil qiluvchi, badiiy makon va zamonda mavjud bo'lib, dunyo va shaxs haqidagi muayyan konsepsiyalar tashuvchi vositalar yig'indisidir;

- adabiyotshunoslik va ritorikaga yaqin bo'lgan, badiiy borliqni hosil qiluvchi vositalar va uning strukturasini o'rganuvchi ilmiy predmetdir. Arastuning "Poetika"si Farobiy tarjimasida arab tilidagi manbalarda takror tilga olinsa-da, tarjimada asliyatdagi so'z (poetika) emas, balki sarlavha ostidagi "Fi-s-sanoatu-sh-she'r" - deb berilgani uchun arab-fors-turk poetikasi xususida fikr yuritilganda, mutaxassislar uni balog'at ilmi (hozirgi istilohda - badiiy san'atlar) istilohi bilan qabul etishga o'rganganlar.

Masalan, R.Musulmonqulovning "Fors-tojik adabiyotining poetikasi" asarida Arastu nazarda tutgan ma'noda emas, balki ko'proq uni aruz, qofiya va badiiy san'atlarning majmui sifatida qaralgan. Shu-

¹H.Safarova. Mumtoz nasr poetikasi.



ningdek, poetikaga *"badiiy asar qurilishi va unda qo'llanilgan estetik vositalarining tizimi haqidagi fandir"* (KLE) degan ta'rif bilan tavsifiy va tarixiy poetika navlari tavsiya etiladi. Ingliz olimi S.Baldik (C.Baldick) yuqoridagi xususiyatlar qatoriga "poeziyaning til, shakl, janr, kompozitsiya vositalari kabi aspektlari bilan aloqadorlikda"¹ tushunadi.

XX asr boshida Rossiyada sotsial tanqidning realizm asosiga qo'yishi munosabati bilan 20-yillarning o'zidayoq formal maktab vakillarining qarashlari keskin tanqidga uchradi. Lekin ulardan ayrimlarining poetika xususidagi qarashlari hamon ahamiyatli. B.V.Tomashhevskiy: *"poetika o'z vazifasini adabiy asarning qurilish xususiyatlarini o'rganishda ko'radi. Poetikaning o'rganilish obyekti - badiiy adabiyot. O'rganish usuli esa - hodisa va talqinlarni tasniflash va tavsiflashdan iborat"* - deb yozadi.

Poetika V.Jirmunskiy so'zlari bilan aytganda, *"uslubni yaratish vositasi va badiiy dunyoning qurilmasini o'rganishni o'z zimmasiga oladi. Shunday ekan, poetika adabiyotni san'at sifatida o'rganuvchi fan, poeziya haqidagi ilmdir"*.

Poetika - adabiyotni san'at sifatida o'rganuvchi fandir. Agar azaldan mavjud bo'lgan bunday so'z qo'llanilishini qabul qilsak, shuni dadil tasdiqlab aytish mumkinki, keyingi yillarda adabiyot haqidagi fan poetika belgisi ostida rivojlanmoqda. Shuning uchun shakl va mazmun (nima va qanday)ning shartli ziddiyati ilmiy tadqiqotlarda har doim estetik obyektida birlashgan holatni tasdiqlashga olib keldi. San'at asarida har qanday yangi mazmun shakl orqali ko'rinadi: shaklda aks etmagan mazmun, ya'ni o'z ifodasini topmagan mazmun san'at asarida mavjud emas. Xuddi shu kabi shaklning har qanday o'zgarishi yangi mazmunning ochilishidir, yoki shakl qaysidir mazmunga nisbatan ifodaviy usul deb qaralayotgan joyda mazmundan holi shakl bo'lishi mumkin emas. Shunday qilib, bu nisbatdagi shartliligi san'at asarining badiiy strukturasida sof formal (shakliy) momentning maxsus xususiyatlarini aniqlashda kam samara berishi mumkin.

¹ Contemporary Poetry. N. Williams. Edinburgh University Press. P. 101; Бопев Ю.Б. Энциклопедический словарь эстетики и теории литературы. - Москва, 2008. Эл.версия - П. С. 90-92.



Adabiy yodgorlikka badiiy asar sifatida yondasha turib, biz badiiy butunlikning har bir elementini uning poetik harakatda ekani nuqtayi nazaridan baholaymiz: *badiiy san'at haqidagi fan – poetika doirasida ifodalanuvchi bilan ifodalovchi, estetik fakt bilan estetik faktning tashqarisidagi (hodisa) ikki hodisa bir xil tushunilishi mumkin emas*¹. Bu degani, albatta, adabiy yodgorlikka estetik qarashdan boshqa nuqtayi nazardan yondashish mumkin emas: san'at haqidagi masala sotsial fakt haqida yoki san'atkorning hissiy faoliyati mahsuloti bo'lishi mumkin emas, san'at asarini diniy, axloqiy, ta'limiy jihatdan o'rganish imkoniyat darajasida bo'lishi mumkin; metodologiya-ning vazifasi – amalga oshirish yo'llari va bunday o'rganish usullarini amalga oshirishning zarur chegaralarini ko'rsatishdir. Lekin shoir kechinmalarini ongsiz ravishda uning zamondoshlari g'oyalari bilan badiiy asarning san'at usullari bilan ifodalangan mazmuni sifatida aralashtirib yuborish, uni badiiy shakl sifatida qabul qilish poetika masalalarini o'rganuvchi ilmiy ishda o'rinli emas. Shakl va mazmunning an'anaviy bo'linishi, san'at asarida estetik bilan noestetikni ajratish boshqa san'at asarining muhim xususiyatlarini estetik obyekt sifatida qarashga zid bo'lishi mumkin. Bu ziddiyat poeziyaning "formal" unsurlarini nazariy o'rganish yo'lini ko'rsatadi. Lekin keyinroq usullar birligi bo'lgan uslubning teleologik² tushunchasining rivojlanishi va chuqurlashuvini ham bildirishi mumkin. Poetikani qurishda bizning vazifamiz – to'liq munozarasiz materialdan kelib chiqish va badiiy kechinmaning mohiyati haqidagi masaladan qat'iy nazar, estetik obyekt strukturasini, bu o'rinda esa – so'z san'ati asarini o'rganishdir.

Turli teleologik harakatlarning birlashuvi birga mavjud bo'lgan "so'zlashuv tili" deb nomlangan o'zaro harakatga kirishadi, faqatgina til tarixiy hayotining aniq realligi sharoitida amalga oshishi mumkin.

¹ Жирмунский В.М. Задачи поэтики / Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр.тр. Л., Наука, 1977. - С. 22. Contemporary Poetry. N. Williams. Edinburgh University Press. P. 110.

² Teleologiya (talos – oqibat, maqsad va ...logiya) – maqsad va maqsadga muvofiqlik haqidagi ta'limot. Teleologik xarakterdagi konsepsiyalarga odam faoliyati kabi qandaydir oldindan belgilab qo'yilgan maqsad, mo'ljalga muvofiq bo'ladi, deb tasavvur qilish xosdir.



Amaliy nutq tili bunday belgilanishga ko'ra, mumkin qadar fikrning to'g'ri va aniq berilishi vazifasiga bo'ysunadi¹: maqsadga erishishda vositalarni iqtisod qilish – mana shunday tilning asosiy prinsipidir.

"Tarixiy poetika", "Nazariy poetika" va "Mumtoz poetika" ning yuzaga kelishi. Poetika istilohining ma'no qamrovi ham, qo'llanilish doirasi ham juda keng bo'lganini uni ayrim sohalarga munosabatda ko'ramiz: tarixiy poetika (A.N.Veselovskiy), nazariy poetika (A.A.Potebnya), antik poetika (S.S.Averinsev), dinamik poetika (Z.S.Paperniy), struktural poetika (R.Bart, Yu.Lotman) kabi. Bundan tashqari ayrim badiiy komponentlarga nisbatan: syujet poetikasi (A.N.Veselovskiy), badiiy nutq poetikasi (V.Vinogradov), mif poetikasi (E.M.Meletinskiy), bayon² (повествование) poetikasi (N.K.Gey), kompozitsiya poetikasi (B.A.Uspenskiy) kabi qo'llanishlar ham bor.

Shuningdek, ayrim ulug' ijodkorlarga nisbatan ham bu bag'ri keng istiloh – Navoiy poetikasi (Y.Is'hoqov), Pushkin poetikasi (S.G.Bocharov), Dostoyevskiy poetikasi (M.Baxtin) qabilida ham qo'llanilgan. Bu o'rinda bizning maqsadimiz, umuman, bu istilohga munosabat emas, balki badiiy matnga nisbatan poetika sohasini belgilash va uning vazifalarini o'rganishdan iboratdir.

Tarixiy poetika masalalarini Rossiyada akademik A.N.Veselovskiy ilgari surgan bo'lib, adabiyot tarixida garchi tugallanmagan bo'lsa-da, poetik janrlar asosida yetarlicha ta'limot qoldirgan. U o'z tarixiy poetikasining birinchi bobi umumiy mundarijasiga ko'ra, boshlang'ich poeziyaning tarixiy masalalarini alohida ilgari surishi lozim bo'lsa-da, maxsus maqolalaridan ("Epitet tarixidan", "Psixologik parallelizm", "Syujet poetikasi"ning tugallanmagan yozuvlari) ma'lum bo'lishicha, nazariy masalalar asarining tarkibida muhim o'rinni egallashi kerak edi.

Nazariy poetika muammolari A.A.Potebnya ishlarida, jumladan, "Adabiyot nazariyasiga oid yozuvlardan" kitobi yoki uning butun

¹ Qarang: Шкловский В. Искусство как прием. В кн.: Поэтика. Пр., 1919. С.102. 24. Contemporary Poetry. N. Williams. Yedinburgh University Press. P. 118.

² Contemporary Poetry. N. Williams. Edinburgh University Press. P. 120. // Жирмунский В.М. Задачи поэтики / Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр.тр. Л., Наука, 1977. - С.155.



tizimi yaxlit olganda, uning asarlarida aks etgan metodga – poetikani til haqidagi umumiy qonuniyatlarni o'rganuvchi tilshunoslikka yaqinlashuvi – mohiyatan e'tiroz uyg'otsa-da, favqulodda samarali bo'lgani uchun keng e'tirof etilgan. Adabiyotni tadqiq etish metodining o'rganilishi masalalarini qaytadan ko'rib chiqish shunday qarorga olib keldiki, adabiyot san'at sifatida o'rganilishi kerak va badiiy so'z materiali asosidagi madaniyat tarixi muammolarining jo'n tuzilishi tarixiy va nazariy poetikaga o'z o'rnini bo'shatib berishi kerak. Bu jihatdan 1914-yili akademik V.N.Peretsning "Rus adabiyot tarixi metodologiyasiga doir ma'ruzalar"¹i oldinga tashlangan muhim qadam bo'ldi. Antik poetika (S.S.Averinsyev), dinamik poetika (Z.S.Paperniy), struktural poetika (R.Bart, Yu.Lotman).

Badiiy matn komponentlari syujet, bayon, kompozit-siya, badiiy nutq, janr poetikasi va boshqalarga nisbatan poetika istilohi qo'llanar ekan, bu umumiy ma'nodagi poetika ma'nosining torayishi, uning xususiy komponent belgilarining majmui sifatida tushunishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, "poetika" orqali so'z san'atining mohiyatini ozmi-ko'pmi anglaganingizdan keyin adabiyotning asl asarlari, ulug' so'z san'atkorlari asarlari mohiyatini, odam va olam haqida haqiqatlarni chuqur tadqiq etish imkoni yuzaga keladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. "Poetika" tushunchasi va uning mohiyati haqida gapiring?
2. "Balog'at ilmi" qanday ilm?
3. "Poetika" istilohining kelib chiqishi haqida gapiring?
4. Aristotelning poetika ilmiga qo'shgan hissasi.
5. "Poetika"ning tavsifi.
6. "Poetika" necha qismdan iborat?
7. Tarixiy poetikaning asoschisi kim?
8. Mumtoz poetika deganda nimani tushunasiz?


¹ Contemporary Poetry. N. Williams. Edinburgh University Press. P. 130. Веселовский А.Н. Собр. Соч. Т.1. СПб., 1913. – С.106. // Перетс В.Н. Краткий очерк методологии. Пб., 1922. – С. 114.



9. Poetika ilmi deganda nimalarni tasavvur qilasiz?
10. Adabiyotshunoslikda tarixiy poetikaning o'rni?
11. Poetika ilmi rivojiga hissa qo'shgan jahon olimlari tadqiqotlari haqida so'zlab bering?
12. "Poetika" ilmi yoki san'atmi?

Adabiyotlar:

1. Contemporary Poetry. N. Williams. Edinburgh University Press. P. 120.
2. Жирмунский В.М. Задачи поэтики / Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр.тр. Л., Наука, 1977. – С. 155.
3. Contemporary Poetry. N. Williams. Edinburgh University Press. P. 130.
4. Веселовский А.Н. Собр. Соч. Т.1. СПб., 1913. – С. 106.
5. Перетс В.Н. Краткий очерк методологии. Пб., 1922. – С. 114.
6. Abdulla Ulug'ov. Arastu anglatgan adabiyot. "Jahon adabiyoti" jurnali. 2018. № 2-3-sonlarida.
7. Dilnavoz Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O'quv qo'llanma. – T., 2018.





2 -MAVZU: MIF POETIKASI

Reja:

1. Mifologik qarashlarning paydo bo'lishi va shakllanishi.
2. Mif va uning turlari.
3. Mif poetikasi (E.M.Meletinskiy maktabi).
4. Mif – boshqa adabiy janrlarning shakllanishiga asos sifatida.

Tayanch so'z va iboralar: *ilk adabiy shakl, mif, xayoliy uydirma, qadimgi odamlar, afsona, asotir, mifning turlari, mif poetikasi, E.M.Meletinskiy maktabi, ertak, ilk syujetlar, M.Jo'rayev, tasnif, tadqiqotlar.*

Mifologik qarashlarning paydo bo'lishi va shakllanishi. Qadimiy tasavvurlar silsilasi va o'z davrida tafakkur shakli hisoblangan miflar – odamlarning voqelikka nisbatan ongsiz ravishdagi hissiy munosabatining ifodasi sanaladi. Shuningdek, mif – afsona janrining badiiy shakli asosida bayon etilib, tarixda yashab o'tgan ajdodlarimizning olam haqidagi tasavvurlarini o'zida jamlaydi. Miflarning ommalashishida, ularning avloddan avlodga yetib kelishida xalq og'zaki ijro san'ati katta ahamiyat kasb etadi va ular asosan so'z vositasida hikoya qilib berilgan, natijada bugungi kungacha yetib kelgan. Ilmiy manbalarda mif – atamasining 500 dan ortiqroq ta'rifi mavjudligi qayd qilinadi¹.

Turli xalqlarning olamning yaratilishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlar va ular bilan bog'liq hodisalar haqidagi tasavvurlarini ifodalab ma'lum bir tizimga solingan shakli – mifologik dunyoqarash deb yuritiladi. Bu tizimga solishning muhim shakllari epos, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar bo'lib, miflar eng avvalo, ular orqali ifodalanadi. Shu yo'sinda jamlangan bilim va tajriba avloddan avlodga o'tishini ham ta'minlaydi. Mifologik dunyoqarashda

¹ Шахнович М. И. Первобытная мифология и философия. – Ленинград: Наука, 1971.



tabiat narsalari va hodisalari inson bilan bir xil qonunga muvofiq yashaydi, inson bilan bir xil sezgilar va xohishga ega bo'ladi. Shuningdek, unda ulkan olam doirasida dunyoning cheksiz rang-barangligi vujudga keladi va har bir dunyo o'z makon va vaqtiga ega bo'lishining guvohi bo'lishimiz mumkin. Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu oddiy rivoyat emas, balki og'zaki muqaddas matnning arxaik ongdagi voqea-hodisalarga, odamga va u yashayotgan dunyoga ta'sir ko'rsatuvchi muayyan borliq sifatida yuzaga kelgan dunyoqarashdir. Mifologik dunyoqarashga ko'ra bu olam boshqa dunyolar bilan o'ralgan, ularning barchasi insoniyat bilan ma'lum darajada bog'langan hamda o'sha borliqning kuchlari va aloqadorlik munosabatlari odamlar yashaydigan olamga va insonning o'ziga faol ta'sir ko'rsatadi.

Mif va uning turlari. Mif (yun. mythos – afsona, rivoyat, asotir)– qadimgi odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga olgan¹. Mif qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo'lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izohlasada, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan. Qadimgi odamning olam haqidagi tasavvurlarini o'zida ifodalagan va avloddan avlodga yetkazishga mo'ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha bo'lib, asosan, jonli og'zaki ijro, ya'ni so'z vositasida hikoya qilib berilgan. Mifologik tasavvurlar tizimi ibtidoiy udum va marosimlar mag'zini tashkil etuvchi xatti-harakatlardan iborat ritual o'yinlar sifatida ham namoyish qilingan. Qadimgi tasavvurlar asosida yaratilgan osori-atiqalar

¹ B.Sayfullayev. Madaniyat va san'at atamaları qomusiy lug'ati. – T.: 2014.



hamda xalq hunarmandchiligi buyumlaridagi ramziy chizgilarda ham mifik syujetlar aks ettirilgan.

Miflar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) ibtido haqidagi miflar (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi miflar);
- 2) samoviy miflar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi miflar);
- 3) antropogenik miflar (g'ayrioddiy xislatga ega bo'lgan afsonaviy pahlavonlar, mas, Gerakl, Gilgamesh, Odami Od, Hubbi va b. haqidagi miflar);
- 4) sig'inish miflari (muayyan e'tiqodiy ishonchlar bilan bog'liq, mas, suv, o'simlik, olovga sig'inish haqidagi miflar);
- 5) etnogenetik miflar (urug'-qabilalarning kelib chiqishi bilan aloqador miflar; mas, 92 o'zbek urug'larining paydo bo'lishi haqidagi miflar);
- 6) kalendar miflar (yil, oy, kun hisobi bilan bog'liq miflar, mas, ayamajuz, ahman-dahman, chilla, to'qson hisobi bilan bog'liq miflar);
- 7) esxatologik miflar (olamning intihosi haqidagi, mas, oxirzamon to'g'risidagi miflar).

Ezgulik kuchlarining zulmatni o'ziga makon qilgan yovuzlikka qarshi kurashini o'zida aks ettirgan qadimgi miflar badiiy tafakkurning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Voqelikni estetik kategoriya sifatida idrok etish hamda badiiy so'z vositasida talqin qilish an'anasi kelib chiqqach, qadimgi miflarning asosiy qismi so'z san'atining turli janrlariga singib ketgan. O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotidagi ko'plab epik syujet va an'anaviy motivlarning genetik ildizlari bevosita mifik tasavvurlar qatlamiga borib taqaladi. Miflar "Avesto", "Iliada", "Ramayana", "Shohnoma", "Kalevala", "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi adabiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmoqli o'rin tutgan¹.

Eleazar Moiseevich Meletinskiy (22-oktyabr 1918-yil, Xarkov, Ukraina davlati – 2005-yil 16-dekabr, Moskva, Rossiya) – sovet va rus filologi, madaniyatshunos tarixchi, nazariy folklor tadqiqot maktabining asoschisi. Filologiya fanlari doktori, professor. "Dunyo xalqlari

¹T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. O'zbek folklori. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T., 2020.



afsonalari" va "Mifologik lug'at" ensiklopedik nashrlarini yaratishda bevosita ishtirok etgan.

Ilm-fan sohasida o'z maktabining yaratuvchisi bo'lgan E.M.Meletinskiy, avvalambor, A.N.Veselovskiy an'alarining davomchisi hisoblanadi. U ularga 40-yillarda akademik V.M.Jirmunskiyning ta'siri ostida murojaat qildi, u o'zi o'qituvchisi deb atagan yagona odam edi.

Meletinskiy uchun (Veselovskiy va Jirmunskiyga ergashgan) ilmiy qiziqishlarning diqqat markazida hikoya an'alarining vaqt o'tishi va ularning genezisi harakati bo'lgan va Meletinskiy arxaik adabiyotga, uning ijtimoiy va etnik madaniy shart-sharoitlariga alohida e'tibor bilan ajralib turadi. U og'zaki va adabiy adabiyotda mifologik rivoyatlarning asosiy mavzulari va obrazlari, she'riy so'z va folklor janrining arxaik holatini ko'rib chiqdi, xalq ertagining kelib chiqishi va evolyutsiyasini, shuningdek, uning markaziy qismini tasvirlab berdi. Xarakter – ijtimoiy jihatdan ojiz birodar, yetim, o'gay qiz, rivojat an'analari va epik janrlarni qo'shishning ibtidoiy kelib chiqishi va bosqichlarini o'rgangan. Shu nuqtayi nazardan, ulkan taqqoslash materiallari asosida barcha qit'alar xalqlarining og'zaki an'alarini qamrab olgan holda, u ertak va qahramonlik-epik folklorning dastlabki turlaridan boshlab saqlanib qolgan asosiy janrlarini tahlil qildi. Bir qator yozilmagan madaniyatlarda va qadimgi va o'rta asrlar adabiyotining ayrim namunalarida aks etgan. Uning Shimoliy Kavkaz Nart afsonalari (10), kareliya-fin (11) va turkiy-mo'g'ul eposlari (12) haqidagi maqolalarini eslatib o'tish joiz.

E.M.Meletinskiy tadqiqotlarida mifologiya alohida o'rin egallaydi, ular bilan hikoya qiluvchi folklor manbalari va adabiy motivlar va syujetlarning eng arxaik shakllari u yoki bu darajada bog'liqdir. Uning maqolalari va kitoblarida Avstraliya va Okeaniya, Shimoliy Amerika va Sibir aboriginlarining og'zaki afsonalari tahlil qilingan, shuningdek, Qadimgi dunyo va O'rta asrlar xalqlari mifologiyasining kitob yodgorliklarida aks etgan ("Edda").

"Mifning poetikasi" umumlashtiruvchi monografiyasi mifologiyaning eng arxaik shakllaridan boshlab XX asr adabiyotidagi "mifologizm" ko'rinishlariga qadar (Kafka, Joys, Tomas Mannning nasrlari) qadar ko'rib chiqilgan muhim xalqaro rezonansni oldi.



E.M.Meletinskiy ikki jildli "Dunyo xalqlari afsonalari" ensiklopediasining bosh muharriri o'rinbosari (1980-yilda nashr etilganidan beri, u allaqachon bir nechta nashrlardan o'tgan, "Mifologik lug'at" uni ko'p jihatdan to'ldiradi (birinchi nashr – 1988-yil) va ikkala asarning asosiy mualliflaridan biri. "Dunyo xalqlari afsonalari" asari uchun SSSR Davlat mukofoti laureati (1990) bo'lgan. O'zining epik yodgorliklarini, folklor-mifologik sikllari va an'alarini o'rganishga bag'ishlangan asarlarida E.M.Meletinskiy asosan folklorshunos nazariyotchi rolini o'ynaydi, u uchun og'zaki yoki kitob matnini maxsus, ammo batafsil ko'rib chiqish faqat yo'lning bosqichidir. An'anaviy adabiyotning rivoyat janri rivojlanishining ko'proq umumiy tarixiy, she'riy shakllariga e'tibor qaratgan. Ushbu bilimlarning asosiy vositasi qiyosiy tipologik va strukturaviy-semiotik tadqiqotlarning bir-birini to'ldiruvchi texnikasi hisoblanadi.

An'anaviy motivning chuqur mifologik semantikasini o'rganish olimni keyingi katta mavzu – folklor arxetiplarini o'rganishga, E.M.Meletinskiyning jiddiy klassik tuzatishlar kiritgan "klassik" yunglik tushunchasiga olib keldi. Arxaik, avvalambor, mifologik an'alarini o'rganish tajribasi unga insoniyat madaniyatidagi ushbu qadimiy aqliy tuzilmalarning genezisi va faoliyati muammosiga bir tomonlama va zamonaviylashtirilgan yondashuvdan voz kechishga asos beradi. Folklor syujetidagi mifologik arxetiplarni o'rganishdan olim rus klassiklari asarlaridagi arxetipik ma'nolarni tahlil qilishga o'tdi.

Meletinskiyning kitoblari va maqolalarida uchta dominant tadqiqot yo'nalishi ajratilgan:

1. Afsona va folklordagi asosiy obrazlarning tipologiyasi va tarixiy o'zgarishlari, shuningdek qadimgi, o'rta asrlar va yangi asrning ularga oid adabiy yodgorliklarida.
2. Og'zaki adabiyotning uchta katta janr-tematik majmuasining (afsona, ertak, epik) tarkibiy va sahna munosabatlari.
3. Folklor rivoyatini syujet tashkil qilish va motivning semantik tuzilishi.

Meletinskiy uchun bunday masalalarni muhokama qilishda afsona xuddi shunday materialdir. Shu sababli – nafaqat katta qiziqish, balki keyingi madaniy shakllanish uchun paradigmatic ahamiyatga



ega bo'lgan arxaik an'analarga doimiy e'tibor. An'anaviy syujetlarning tizimli tipologiyasini va motivlar semantikasini o'rganish E.M.Meletinskiy adabiy va mifologik arxetiplar konsepsiyasini shakllantirishga olib keladi.

Mif – boshqa adabiy janrlarning shakllanishiga asos sifati-da. "Mif va ertak" – nomli E.A.Meletinskiyning maqolasi 1970-yilda nashr etilgan. Asarda E.A.Meletinskiy afsona va ertakni tahlil qiladi va ajratadi, bu farqning asoslarini, shuningdek, afsona va ertakning bir-biri bilan bog'liqligini tahlil qiladi. Ertak va afsona o'rtasidagi farq va shu kabi farqlarni belgilash, E.A.Meletinskiyning fikriga ko'ra, ham nazariy, ham amaliy vaznga ega. Agar nazariya nuqtayi nazardan ularni ajratish *ibtidoiy sinkretik mafkura (afsona) va san'at (ertaklar) masalasi* bo'lsa, amaliy jihatdan ularning farqlanishi arxaik madaniyat masalasidir. Ba'zi tadqiqotchilar afsonani o'ziga xos ertak deb ta'riflashga moyil bo'lishadi (bunday tadqiqotchilar orasida – S.Tompson), ba'zilar, aksincha, arxaik, ibtidoiy ertaklar o'z mohiyatiga ko'ra afsona degan pozitsiyaga rioya qilishadi. "Mifologik ertak" atamasi sodir bo'lganda, xuddi afsona va ertakning asosiy xususiyatlarini birlashtirganidek, murosaga kelish pozitsiyasi mavjud.

Afsona so'zining o'zi, – deb yozadi Meletinskiy, qadimgi yunoncha ildizlarga ega va biz allaqachon bu qadimgi yunon ildizlaridan kelib chiqqan holda afsona va ertaklarning ma'lum bir aralashmasini kuza-tamiz, afsona bu rivoyat, tarix va eposdan boshqa narsa emas. Bunday "afsonalar" o'z mohiyatiga ko'ra ertaklardir. Umuman olganda, ibtidoiy ertak va ibtidoiy afsonani turli sohalarga ajratish mumkin emas ko'rinadi, chunki ibtidoiy dunyo hikoya ekan, u tubdan hikoya qiladi.

Folklor, filologiya va umuman gumanitar fanlarning rivojlanishi bilan turli xil nazariyalar va tushunchalar ilgari surildi, ular bir qator xususiyatlarni taklif qildilar, buning asosida afsonani ertakdan ajratib olish va ularga o'ziga xos xususiyatlarni berish mumkin edi. Shunday qilib, Meletinskiy XIX asr mifologik maktabining mavjudligiga ishora qiladi, uning vakillari xudolar va qahramonlar haqidagi hikoyalarni ajratib turardi. Shuningdek, u marosim va afsona o'rtasidagi bog'liqlikni birinchi o'ringa qo'ygan neomifologik ritualistlar haqida yozadi.



Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan, bashariyat xotirasida chuqur joy egallagan mif va afsonalarning o'rni, ayniqsa, san'at va adabiyot uchun misli beqiyosdir. Dos-tonnavislar, dramatik va lirik ijodkorlar, rassomu haykaltaroshlar o'z ijodiy ishlarida ushbu qadimiy ma'naviy boylikdan foydalanib, yuksak darajadagi asarlarni yaratishga muvaffaq bo'lishdi va bu an'ana hozir ham davom etib kelmoqda. Mif va mifologik qarashlarning inson ongiga ta'siri juda kuchli bo'lib, uni o'ziga mahliyo qilib qo'yadi va fantastik olamga sayohat qilishini ta'minlagan holda ma'naviy ozuqa beradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:


1. "Mif" deganda nimani tushunasiz?
2. "Mif" adabiy shakli? Izohlang.
3. Mifologik qarashlar qachon shakllangan?
4. Qanday mifologik maktablarni bilasiz?
5. E.A.Meletinskiyning mif va ertak haqidagi nazariy qarashlarini izohlang?
6. Mif va xalq og'zaki ijodi.
7. Miflarning turlari va tasnifi haqida ma'lumot bering?
8. Mif turlarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritng.
9. Mif poetikasi bo'yicha qaysi olimlar tadqiqot olib borgan?
10. Mifologik maktablar haqida ma'lumot bering?
11. M.Jo'rayevning mif bilan bog'liq tadqiqotlari bilan tanishing?
12. Mifning afsonadan farqini ayting?

Adabiyotlar:

1. А.Н. Веселовский. Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1989. – 404 с.
2. История всемирной литературы. Т. 1-5. – М., 1984–1988.
3. Историческая поэтика. А.Н. Веселовского и проблема происхождения повествовательной литературы // Историческая поэтика (Итоги и перспективы изучения). – М., 1986. – С. 25–52.
4. Предки Прометея (Культурный герой в мифе и эпосе) // Вестник истории мировой культуры, № 3 (9), май–июн 1958. – С. 114–132. Избранные статьи. Воспоминания. – С. 334–359.



5. Мелетинский Э. М. Поэтика мифа. Миф. 1976.
6. Стеблин – Каменский М. И. Миф. – Л.: 1976.
7. Мифы народов мира. В двух томах. Миф. 1991.
8. Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Т., 2001.
9. Кун Н. Қадимги Юнон афсона ва ривоятлари. – Тошкент, 2013.
10. B.Sayfullayev. Madaniyat va san'at atamallari qomusiy lug'ati. – Т., 2014.
11. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. O'zbek folklori. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Т., 2020.





3-MAVZU: SINKRETIZM DAVRI POETIKASI

Reja:

1. Sinkretizm tushunchasi.
2. Syujet haqida A.Veselovskiy qarashlari.
3. Eposning paydo bo'lishi va syujetlarga oid qarashlari.
4. Syujetlarning "ko'chishi", "poetik o'zlashtirish"lar haqida.

Tayanch so'z va iboralar: *Sinkretizm, sintetizm, syujetlar, ko'chish, tarixiy poetika, adabiyot nazariyasi, Tamarchenko, syujetlar "ko'chishi", "poetik o'zlashtirish", sakral, "sariqa" va "axz".*

Sinkretizm tushunchasi. Poetika ilmida tarixiy asarlarning o'rnini belgilash adabiy turlardagi an'anaviylik va sinkretizmni, janrlararo diffuziyani aniqlashga xizmat qiladi. Poetik hodisalar janr o'zgaruvchanligi, janrning obrazga, syujetga, kompozitsiyaga ta'siri, kanonik o'zgarishga turtki berishi bilan yuzaga keladi.

Sinkretizm atamasining ma'nosini to'liq ochishdan oldin uning etimologik kelib chiqishini aniqlash zarur. Shu ma'noda aytishimiz mumkinki, bu yunon tilidan kelib chiqqan so'z, xususan, uchta tabaqalashtirilgan elementlardan tashkil topgan "sinkretismos":

- "sin" prefiksi, uni "bilan" deb tarjima qilish mumkin.
- "Kriti" iborasi bilan "Kriti" sinonimi.
- "ta'limot" yoki "tizim" degan ma'noni anglatuvchi - "ismo" qo'shimchasi. Sinkretizm bu - turli xil ta'limotlar va madaniyatlar ni uyg'unlashtirish, aralashtirish, o'zaro bog'lashdan iborat bo'lgan madaniy tipdagi konformatsiya bo'lib, u yerda har birining muhim mezonlarini saqlab qolishga intiladi. Ya'ni turli madaniyatlar, adabiyotlar, adabiy tur va janrlarning o'zaro bog'lanishi, uyg'unlashuvidir.

Sintetizm - epik janrlarning o'zaro birikib ketish hodisasi. Sintetizm faqat badiiy asarlarga emas, balki tarixiy asarlar poetikasiga ham xos. Shuningdek, adabiy-tarixiy asarlarda bir janr ichida sintezlash orqali ertak, afsona, rivoyat, hikoyat, naql, xalq dostonlariga xos



ijod etish an'anasi mavjud. Bunday holatda "sintetizm jarayonida janr kanonizatsiyasiga xos ikki tizim ko'zga yaqqol tashlanadi: a) turli janr va janr komponentlarining yagona janr doirasida mujassamlanishi; b) bir yoki bir nechta janr namunalarining bir asar tarkibiga birkuvi natijasida yangi janrning maydonga kelishi"¹. Kuzatishlarimiz natijasida tarixiy-nasriy asarlarda berilgan "zikr"da sintetizmning ikkinchi ko'rinishi namoyon bo'lgan. Chunki unda bir necha adabiy janrlar birikkan. "Zikr" tarkibiga voqea bayoni jarayonida she'r, ertak elementlari, rivoyat, hikoyat va naql janrlari singib ketgan. Natijada, nasr va nazmning aralash holda kelishi, janrlararo munosabat sinkretizm jarayonini kuchaytirgan. Demak, yozma tarixiy-adabiy asarlarda muallif o'z badiiy-estetik g'oyasini amalga oshirish maqsadida xalq og'zaki ijodi an'alaridan (afsona, rivoyat, hikoyat, naql ertak va b.) foydalanib, tarixiy shaxsni tasvirlash, u haqda xabar berish, tarixiy ma'lumotni eslatish, dalillash maqsadida voqelikni badiiy ifodalovchi "zikr"larni ishlab chiqadi.

Syujet haqida A.Veselovskiy qarashlari. Tarixiy poetikaning asoschisi A.N.Veselovskiy XIX asrning oxirgi choragida - tarixiy poetikaga endigina asos solingan paytda "tarixiy poetikaning predmetini ma'lum darajada qaror topgan deb hisoblash mumkin, tarixiy poetika poetik tamoyillar, usullar va shakllarning evolyusiyasi bilan ish ko'radi", - deb yozgan edi. Garchi A.N.Veselovskiy sinkretik davr materiallariga tayangan holda tarixiy poetikaning predmetini aniqlagan bo'lsa ham, uning yuqorida keltirilgan gaplarida qadimgi va o'rta asrlardagi yozma va og'zaki adabiyotning rivoji ham o'z ifodasini topgan.

Poetika kategoriyalari, shubhasiz, doimo harakatda, o'zgaruvchan. Hatto uzoq kelajakda ham ular o'z dolzarbligini saqlaydi. Ular davrdan davrga, adabiyotdan adabiyotga o'tish jarayonida qiyofasini va mazmunini o'zgartiradi, yangi aloqalarga va munosabatlarga kirishadi, har safargi munosabatlar orqali bir-biridan farqli alohida va maxsus tizim hosil qiladi. Bu tizimning har biri xarakteri davrning badiiy tafakkuri, o'z navbatida davrning adabiy aqidalari, uning poetikasi orqali yuzaga chiqadi.

¹ Журакулов У. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтики. Ф.ф.д. (DSc). Дисс.автореф. - Т., 2017. - Б. 16.



"Tarixiy poetika" tushunchasining mazmuni va mohiyatidagi o'zgarishlar, adabiy jarayon taraqqiyotini tahlil qilish bevosita va bilvosita adabiyot tarixiga tayanadi. Zotan, Sharq adabiyot tarixi va uning nazariyasi bo'yicha yaratilgan tadqiqotlarni Yevropa antik va o'rta asr adabiyotiga qiyoslab o'rganish orqali adabiyot tarixining tarixiy poetika uchun material va manba ekanini aniqlay olamiz.

Bizga ma'lumki, mif bilan bir qatorda udumlar – arxaik madaniyatning sinkretik shaklidir. Bu o'rinda udumlarga to'xtalishimiz bejiz emas. Shubhasiz, udumlar ham adabiy turlar shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Shuning uchun ayrim olimlar adabiy turlarning ajralib chiqishini A.N.Veselovskiy qarashlaridan boshqacha tarzda talqin qiladilar. E.M.Meletinskiyning adabiy turlarning, xususan, eposning kelib chiqishi haqida aytgan fikri diqqatga sazovor. Uning fikricha, eposning kelib chiqishi lirika va dramani boshqacha, eposning kelib chiqishida udumlarning aslo roli yo'q, balki ular mifdan kelib chiqqan.

Meletinskiy qadimgi san'atda so'zning *sakral* xususiyatlariga alohida diqqat qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Shu o'rinda sakral termini haqida. Bu so'z lotincha bo'lib, "diniy kult va udumlarga mansub bo'lgan muqaddaslik" degan ma'noni bildiradi, umuman, xalq og'zaki ijodida sakral obyektlar, jismlar muhim rol o'ynaydi, ularning udumlarga bog'liqligi aynan sakrallik xususiyatidan kelib chiqadi. Haqiqatan, bugungi kunda xatti-harakatning va mifning verbal qismi sakral maqomiga hech qanday shubha yo'q. Albatta, A.N.Veselovskiy va E.M.Meletinskiyning epos alohida tur sifatida ajralib chiqishiga oid qarashlari qanchalik o'zini oqlashi haqida kelgusidagi tadqiqotlar natijasida bir qarorga kelish mumkin. Lekin shuni aytish kerakki, mif asosan verbal xususiyatga ega ekan, udumlar, kult yoki sakral obyektlar mifning shakllanishiga turtki bergan degan mulohazani o'rtaga tashlamoqchimiz. Masalan, totemistik, kosmogonik yoki boshqa mif turlarining paydo bo'lishi shunday fikrga olib keladi.

Eposning paydo bo'lishi va syujetlarga oid qarashlari. XIX – XX asr Yevropa adabiyotshunosligi asosan antik adabiyotni asos qilib oldi va buning natijasida grek va rim adabiyoti tarixi tarixiy poetika sohasida ham asosiy mezon bo'lib qoldi. Hatto A.N. Veselovskiy ham



antik yunon adabiyoti taraqqiyotini mezon sifatida qaragan edi: "Grek adabiyoti taraqqiyoti tarixi bizga taxminiy adabiy turlarning izchil ravishda ajralib chiqish manzarasini namoyon qiladi. Biz epos, lirika, drama va romanda o'ziga xos ifodani izlaydigan va topadigan ma'lum ijtimoiy va badiiy talablarning sahnadagi tarixi, aksi hisoblangan har bir turni bilib, umumlashtirishga beixtiyor moyil bo'lamiz"¹. Biroq sanskrit, arab, fors va bosqa Sharq adabiy manbalari Yevropa tarixiy poetikasi uchun asos sifatida yetarli darajada qabul qilinmadi. Shu bois A.Veselovskiyning yuqoridagi qarashlarini ham tanqidiy o'rganish taqozo etiladi. Chunki Bibliyaning shakllanishi, shumerlarning "Gilgamish" dostoni, hindlarning "Moxobxorat" va "Ramayana" dostonlari, "Avesto"ning miloddan oldingi II ming yillikning boshlarida yaratilgan qatlami yunon adabiyotidan qadimiylikni hisobga olsak, adabiy turlarning tarixiy jarayonini o'rganishda Sharq adabiyotiga ham e'tibor berish zarurligi ayon bo'ladi. Birgina "Oltun yorug'"ning badiiy tuzilishi va adabiy janrlarning shakllangani milodiy birinchi ming yillik oxiridagi sanskrit adabiyotida sinkretizmning qonuniyatlarini belgilaydigan manba bo'lib yuzaga chiqadi.

A.N. Veselovskiyning qarashicha, eposlarning shakllanishida kantilenlar asosiy omil bo'lgan. Ammo kantilenlar eposning adabiy tur sifatida ajralib chiqqan ilk davriga emas, balki liro-epik qo'shiqlar paydo bo'lgan davrlarga aloqador. Kantilenlar tarixiy voqealar asosida paydo bo'ladi. Eposning kelib chiqishini tarixiy voqealarga bog'lar ekanmiz, yilnomalardagi tarixni nazarda tutish kerak emas. Masalan, Rossiyalik nemislardan Vollnerning kuzatishlari epos va tarix munosabatlarini aniqroq ochib beradi. Vollnerning fikricha, eposlarning taraqqiyoti yilnomalarda berilgan voqealarning mazmunini tamomila boshqacha.

Sharq adabiyoti, xususan, sanskrit adabiyoti poetikasini o'rgangan olimlardan M. Vinternis sanskrit she'riyatiga baho berar ekan, bu she'riyatda "mazmundan ko'ra shaklga ko'proq urg'u qaratilgan"ini ta'kidlaydi². Sanskrit she'riyati bo'yicha Hindistonda yirik mutaxassis

¹ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – С. 65.

² Winternitz M. A history of Indian literature. Calcutta, 1959, vol.III, p.1.



S.K.De sanskrit poetikasining kamchiliklaridan biri sifatida "poetik tasavvurlarning rolini tushunmaslik oqibatida estetika darajasida o'sishiga xalaqit" berganini ta'kidlaydi¹. Qadimgi arab adabiyoti poetikasida ham shunga o'xshash holat kuzatiladi: *"tasavvur va fikr ifodasi adabiyotning maqsadi deb tushunilmagan... arablar hech qachon adabiyotdagi go'zallik tushunchasini tahlil qilish bilan shug'ullanmaganlar, boshqacha aytganda, ular hech qachon estetikani ishlab chiqish bilan mashg'ul bo'lmaganlar"*².

Syujetlarning "ko'chishi", "poetik o'zlashtirish"lar haqida. Arab adabiyoti poetikasi haqida shuni aytish kerakki, o'rta asr arab adabiyotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. IX-X asrlarda arab olimlari adabiyot nazariyasiga yangicha nuqtayi nazardan yondashdilar. Buning natijasida arab adabiyotining o'zak masalalari, xususan, o'rta asr poetikasining muhim masalalariga diqqat qaratdilar. Jumladan, o'rta asr arab filologlari *"poetik o'zlashtirish"*ga e'tibor qaratdilar va shu orqali adabiyotda *shakl va mazmun* uyg'unligiga e'tibor bera boshladilar. Asli estetik izlanish, adabiyotni estetikaga bog'lash ana shu *"poetik o'zlashtirish"*da ham namoyon bo'lgan edi. Ammo arab adabiyoti tarixini tadqiq qilgan olimlar hali "poetik o'zlashtirish"ni to'liq baholay olmadilar³. *"Poetik o'zlashtirish"* alohida badiiylik kategoriyasi sifatida badiiy adabiyot rivojida muhim rol o'ynadi.

VIII – XII asr arab shoirlari va tanqidchilarining ayrimlari tamomila boshqacha fikrda bo'ldilar. Bu davrda *"poetik o'zlashtirish"* arab filolog olimlarining diqqat markazida bo'ldi. Bu davrda "poetik o'zlashtirish" muammolari bilan Ibn Kunos (741-823/24), Az-Zubayr ibn Boqqor (870-yil vafot etgan), Abu Diyo Bishr ibn Yahyo an-Nasibi (IX asrning ikkinchi yarmi), Ahmad Tayfur (893-yili vafot etgan), ibn Yamut (946-yildan so'ng vafot etgan), al-Xotimiy (998-yili vafot etgan) kabi qator olimlar samarali mehnat qilganlar.

¹ Bu haqda qarang: Гринцер П.А. Литературы древности и средневековья в системе исторической поэтики. – "Историческая поэтика: итоги и перспективы". – Москва: Наука, 1986. – С.73.

² Grinser P.A. Yuqoridagi maqola, o'sha bet.

³Qarang: Куделин А.Б. Средневековая арабская поэтика. Наука: Главная редакция восточной литературы. – Москва, 1983. – С.100.



Agar tarixiy poetika nuqtayi nazaridan ularning asarlarida tadqiqot obyekti sifatida "poetik o'zlashtirish" qaralar ekan, bu hodisa biz ko'p tilga oladigan motiv (arab adabiyotshunosligida *ma'no*) dir. A.N.Veselovskiy tarixiy poetikaning vazifasi *"shaxsiy (individual demoqchi – Nasimxon Rahmonov) ijod jarayonida rivoyatlarning roli va chegaralarini aniqlashdir"*,¹ – deb aytgan gapi ham ilk arab filologiyasidagi "poetik o'zlashtirish"ga tegishli deb qarash mumkin. Xuddi shu ma'noda ijodkorlarning asarlarida boshqa manbalardan keltirilgan rivoyatlar, latifalar, turli qiziqarli tarixiy voqealar ham "poetik o'zlashtirish"ning yaqqol namunasi bo'lishi mumkin. Arab adabiyotida Ibn Qutayba (828-889) o'zining "Ash-she'r va ash-shuaro" asarida u yoki bu shoirning "o'zlashtirishi" haqida so'z yuritadi. Abul-Faraj al-Isfaxoniy (897-967)ning "Kitob al-og'oni" asarida, al-Marzuboniyning "Al-Muvashshah" asarida "poetik o'zlashtirish" sifatida turli mazmundagi xabarlar, latifa va boshqa materiallar keltiriladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, adabiy manbalarda keltirilgan "poetik o'zlashtirish"ni adabiy hodisa sifatida baholash kerakmi yoki adabiy jarayonda salbiy hodisami? Bu albatta, o'z bahosini hali to'liq olganicha yo'q. O'rta asr filolog olimlari ham "poetik o'zlashtirish"ga turlicha munosabatda bo'ldilar, har xil talqin qildilar. Bu adabiy hodisa arab tilida "sariqa" va "axz" terminlari bilan yuritilib, "sariqa" so'zining lug'aviy ma'nosi "o'g'irlik", "talon-taroj qilish" demakdir. "Axz" so'zi esa "olish", "tortib olish" ma'nosini ifodalaydi. Birinchi termin ma'nosiga ko'ra, yunoncha "plagiat" so'ziga juda yaqin; yunonchada "plagiat" "odamlarni o'g'irlovchi", "adabiyot o'g'irisi" ma'nolarini ifodalaydi.

Mazkur terminlar ifodalagan lug'aviy ma'no adabiy hodisaga nisbatan qo'llanganda, albatta, adabiy jarayonning xususiyatlarini hisobga olishga to'g'ri keladi. Jahon adabiyotida "poetik o'zlashtirish" hodisasi qadimdan bor va adabiy jarayonga turtki beradigan hodisa sifatida o'zini oqlagan. Misolni yana Sharq adabiyotida keng tarqalgan va an'anaviy ravishda avloddan avlodga, adabiyotdan adabiyotga o'tib kelgan syujetlar yoki ma'lum rivoyatlar, afsonalarga qaratsak kifoya.

¹ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – С. 493.



Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari fanga yaxshi ma'lum. Bu – tarixiy-etnografik asar. Asar tarkibida afsonalar va rivoyatlar ma'lum bir tarixiy voqeani dalillash yoki rad qilish uchun keltiriladi. Zotan, Beruniy bu asarining yozilish sabablarini ko'rsatadi, ammo amalga oshirish nihoyatda murakkab bo'lganini yozadi. Ayniqsa, qadimgi xalqlar va ularning yil hisoblari haqidagi rivoyatlar chalkashib ketgani, yolg'on afsonalar va asossiz ma'lumotlarga to'lib-toshib ketganini ta'kidlaydi. Ayni paytda, Beruniy rivoyat va afsonalarning haqiqiyliklarini ajratib, saralab olish uchun imkoni boricha harakat qiladi. Beruniyning bu prinsipi ham tarixiylik va haqqoniylikka asoslanganini sezish qiyin emas. Yolg'on va soxta rivoyatlar qadimgi Sharq xalqlarining hisoblari haqidagi aniq ilmiy xulosalarga xalaqit berishi, ayniqsa, yolg'on xulosalarga olib kelishi haqida yozadi¹. Beruniyning asosiy maqsadi turli xalqlardagi yil hisobiga aniqlik kiritish, ularda ilgari tadqiqotchilar yo'l qo'ygan kamchiliklarni tuzatish edi. Ammo "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" tarixiy-etnografik asar bo'lgani holda, nima uchun poetik o'zlashtirish haqida so'z ketyapti? Bu tarixiy poetikaga zid emasmi? Shuni ta'kidlash kerakki, bu asar tarix va etnografiyaga aloqador bo'lsa ham, Beruniy keltirgan afsonalar, rivoyatlar badiiy asarga aloqador bo'lgani uchun, tarixiy poetika uchun material bo'la oladi. Beruniy yil hisobi uchun rivoyat va afsonalar, hikoyatlarning nihoyatda muhim dalil ekaniga ishonadi, ularga suyanadi, ishonchsiz, shubhali rivoyatlar va afsonalarni rad qiladi. U rivoyat va afsonalarni tanlashda o'zi tayangan asoslangan metod haqida shunday yozadi: "Men tutgan yo'l va belgilagan usul oson emas, balki uzoq va qiyin yo'ldir. Xabar va rivoyatlarga ko'plab kirib qolgan yolg'on so'zlarning hammasi ham ravshan emas. Boshqa dalillar bo'lmaganda ba'zilarining yolg'onligini bilib bo'lmadi. Odamlar hozir ham, o'tgan zamonlarda ham shunday tabiiy hodisalarga duch kelgan, agar o'shanday hodisalar uzoq zamonlarda [yuz bergan hikoya deb] qilinsa, albatta, biz unga ishonmas edik. Xalqlardan biriga [tegishli] xabarlar[ning hammasi]ni aniqlab bilishga

¹N.Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrdan XV asrgacha). O'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2017. – 556 b.



inson umri kifoya qilmaydi-yu, hamma millatlar [haqidagi] xabarlarni bilishga qanday kifoya etsin?! Bu mumkin emas!"¹

Yoki Sharq og'zaki va yozma adabiyotida keng tarqalgan Yusuf qissasi, "Yusuf va Zulayho" dostonlari, butun olam To'foni afsonasi (Shumer adabiyotida, Musoning "Ibtido" kitobida, "Qisasi Rabg'uziy"da, "Qisas ul-anbiyo"larda va h.) ning tarqalishi va bir xalq adabiyotidan ikkinchisiga ko'chishini salbiy ma'nodagi "plagiatorlik" deb emas, balki "poetik o'zlashtirish" deb baholanishi kerak.

O'rta asr arab filolog olimlaridan – IX asrda yashagan filolog Abu Tammomning sariqa haqidagi quyidagi fikri ma'lum darajada adabiyot tarixidagi "poetik o'zlashtirish"ga xolis berilgan baho bo'lib tuyuladi: "Agar sariqa o'zlashtirilayotgan ma'noga qo'shimcha oydinlik kiritisa yoki birinchi shoirga nisbatan bunisining she'rlarida so'zlar yanada ma'nodorlikka olib kelsa, yo sariqa sababidan uning aqliga ma'no kelib, bu ma'no o'zidan oldingi shoirning she'ridagi ma'noni aniqlashtirsa, bunda o'zidan oldingi shoir sababli u aniqlanishga muhtoj bo'lmasa, shoirning sariqasi kechirarli bo'ladi"².

Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida ham sariqa va axz haqida fikr bildirilgan.

Bundan xulosa qilish mumkinki, agar ijodkor o'zlashtirayotgan ma'noga qo'shimcha ma'no kiritisa, ijodiy qayta ishlasa, "poetik o'zlashtirish" adabiy hodisa sifatida baholanishi kerak.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Sinkretizm davri haqida nimalarni bilasiz?
2. Sinkretik adabiyot deganda nimani tushunasiz?
3. Sintetizm nima?
4. Adabiy tur va janrlarda sinkretizm hodisasi.
5. A.Veselovskiyning syujetga oid qarashlari.
6. A.Veselovskiyning eposga doir qarashlarini tahlil qiling?
7. "Poetik o'zlashtirish" haqida qanday nazariy qarashlarni bilasiz?

¹Беруний. Танланган асарлар. Том 1. Таржимон А.Расулов. – Тошкент, 1968. – Б. 41.

² Kudelin A.B. Yuqoridagi asar, – B.104.



8. "Poetik o'zlashtirish"ni adabiy hodisa sifatida qanday baholaysiz?

9. "Sariqa" va "axz" terminlarini izohlang?

10. Syujetlar ko'chishi hodisasi haqida gapiring.

11. Sayyor syujetlar deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar:

1. Жирмунский В.М. Задачи поэтики // Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр.тр. Л.: Наука, 1977. – С. 155.

2. Беруний. Танланган асарлар. Том 1. Таржимон А.Расулов. – Тошкент, 1968. – Б. 41.

3. N.Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrdan XV asrgacha). O'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2017. – B. 556.

4. Жўрақулов У. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотон поэтикаси. Ф.ф.д. (DSc). Дисс. автореф. – Т., 2017. – Б. 16.

5. M. Abdullayeva. Adabiy-tarixiy asarlarda kichik janrlar poetikasi. Dissertatsiya. – Samarqand, 2021. – B. 274.



4-MAVZU: TARIXIY POETIKA VA FOLKLOR

Reja:

1. Tarixiy poetika.
2. Folklor va yozma adabiyot.
3. Folklor poetikasining muhim xususiyatlari.
4. Mifologik maktab nazariyasi.
5. "Qo'rqut ota kitobi" da xalq qo'shiqlari.

Tayanch so'z va iboralar: tarixiy poetika, A.N.Veselovskiy, tarixiy asos, mif, xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot, mifologik maktablar, folklor janrlari, N.D.Tamarchenko, M.Y.Lotman, "ilohiy poeziya", kantilen, "Qo'rqut ota kitobi", qo'shiq, boy.

Tarixiy poetika. Har qanday nazariyadan maqsad, amaliyotni yengillashtirish. Agar nazariy qarashlar amaliy operatsiyalarni yengillatishga xizmat qilmas ekan, u uzoq yashay olmaydi. Ilm va amal birligi Qur'oni karimdan tortib barcha so'fiy allomalarning yashash tarzi bo'lganining boisi shundan. Shunday ekan, adabiyot nazariyasining takomilidan maqsad ham oqibatda tahlil jarayonini yengillatishdan iborat. XIX asrda hali yangi tipdagi adabiyot nazariyasi shakllanmay turib, tarixiy poetika qonuniyatlari (A.N.Veselovskiy) ishlab chiqildi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay yangilanayotgan adabiy jarayon natijalari (asarlari)ni tahlil qilishda tarixiylik prinsipi bilan yondashish zamonaviylik nuqtayi nazaridan to'g'ri kelmasligi ilmda aniqlangandan keyin nazariy poetikaga ehtiyoj tug'ildi.

O'z davri olimlari bu "ehtiyoj farzandi"ni yetarli baholay olmagani bo'lsalar ham, nazariy poetika masalalari adabiyot nazariyasining asosi bo'lishi kerak degan taomilga yana yuz yilcha muddatdan keyin (N.D.Tamarchenko) qaytildi. Biroq adabiyotning asosiy tahlil obyekti matn va uning strukturasi degan qat'iy qarorga yaqinlanishi bilan (M.Y.Lotman) struktural poetika ehtiyoji kun tartibiga chiqdi. Biroq bu navbatdagi ehtiyojlar mafkuraviy talqin asosiga qurilgan

adabiyot nazariyalariga singishi mumkin emasligi o'z davridayoq ayon bo'ldi va nihoyat, ittifoq tarqalib, milliy adabiyot namunalari o'z tili va ehtiyojlari doirasida o'rganilishi zarurati tug'ilganda struktural poetika adabiyot nazariyasining asosiga qo'yilishi kerak, degan muddaoga ko'chilmoqda. Buning sababi I.Vinogradovdan (1928) tortib, L.Timofeyev, M.Alekseyev, G.Pospelov va nihoyat, har qancha zamonaviylashtirilgani bilan V.Xalizev nazariyalari mana shu asosga qurilgan edi. Bularning barchasi uchun san'at ijtimoiy ong shakllaridan bo'lib, so'z san'ati deb ataluvchi badiiy adabiyot ham, ijtimoiy ong shakli sifatida borliqni o'rganuvchi vosita (литература есть познание действительности) deb qaralgan. Shu nuqtayi nazardan adabiyot nazariyasi uch qismdan: badiiy adabiyot mohiyati, adabiy asar va adabiy jarayon masalalaridan kelib chiqib qaralgan. N.D.Tamarchenko rahbarligidagi mualliflar guruhi tomonidan tavsiya etilgan so'nggi adabiyot nazariyasi yuqoridagi andozadan butunlay voz kechib, nazariy qarashlar tahlil jarayoniga ko'mak beruvchi tarixiy va nazariy poetika asosiga qurildi. Bizningcha, garchi kech bo'lsa-da, adabiyot nazariyasi o'zining muqaddas vazifasi – badiiylilik qonuniyatlarini o'rganishga kirishar ekan, u poetika nazariyasidan uzoqlashib ketmasligi kerak. Shuning uchun ham endi san'atga ijtimoiy ong shakligina emas, kishilar o'rtasidagi kommunikativ jarayon (muomala ehtiyoji) sifatida qaralar ekan, san'atning o'ziga xos kommunikativ "tili" mavjudligi isbot etilgan ekan, endi obyekt, umuman, ong shakli emas, balki o'sha ongning matndagi foydasiga ko'chdi. Tabiiyki, badiiy matn adabiyot nazariyasining birlamchi obyektiga aylandi. Endi mana shu matn tahlilini o'rganuvchi fanlar – tarixiy va nazariy poetika adabiyot nazariyasining asosiga qo'yilishi zarurat bo'lib qoldi.

Olimlarning ta'kidlashlaricha, Farobiyning "Ihso al-ulum vat-ta'rif" ("Ilmlar san'ati va ta'riflari") nomli risolasida 30 dan ortiq fan sohasining ta'rif berilgan. Farobiyning filologik tadqiqotlari "Kalomush-she'r val-qavof" ("She'r va qofiyalar haqida so'z"), "Kitobul-xitob" ("Ritorika haqida kitob"), "Kitobul-lug'at" ("Lug'atlar haqida kitob"), "Kitobun fois-sino'atu-l-kitob" ("Xattotlik haqida kitob") va h.k. San'at sohasida "Musika kitobi", "Musika haqida so'z", "Katta musika kitobi", "Ritmilar haqida kitob", "Ritmilar tasnifi haqida kitob" asarlari bor.

Folklor va yozma adabiyot. Tarixiy poetikaning o'rganish obyektlaridan biri mifologiya masalasi ilk bor A.N.Veselovskiy tomonidan qo'yilgan. U psixologik parallelizmning paydo bo'lish yo'llari haqida so'z yuritir ekan: "She'r tili eng qadimgi psixologik jarayonni davom ettiradi: u til obrazlari va mifdan, ularning metaforalari va ramzlaridan foydalanadi, ayni paytda ularga o'xshash yangilarini ham yaratadi".¹ Psixologik parallelizm bilan mifning o'zaro aloqasi ramzlarni hosil qiladi. Miflar ilk badiiy tafakkur manbai bo'lgani uchun ham tarixiy poetikaning obyekti hisoblanadi.

Mifning qoldiqlari (reliktlari) afsonalarga, hatto tarixiy rivoyatlarga turtki beradi va ularning zaminida mif qoldiqlari saqlanishi mumkin. Mifologiya ilk timsollar olami va ruhiy materiyadir. Ammo mifologiyani yaratganlar uchun u shunchaki ishonchli yoki haqiqiy bo'lmagan. Ammo ibtidoiy inson uchun mifologiya obyektiv borliq hisoblangan. Masalan, biz uchun bir yil 365 yoki 366 kundan iborat degan tushuncha qanchalik haqiqat hisoblansa, ibtidoiy inson uchun ham mifda aks etgan voqealik shunchalik haqiqiy hisoblangan. Miflar ham anonim asarlar bo'lib, jamoaviy tarzda yaratilgan. Ibtidoiy insonlar uchun mif badiiy asar hisoblanmagan, ya'ni ular mif yaratganlarida badiiy asar yaratyapmiz, deb o'ylamaganlar.

Mifologiyaga Yangi davrda qiziqish Amerikaning kashf qilinishi bilan yanada kuchaydi. XVIII asrda fransuz missioneri J.F.Lafito Shimoliy Amerika hindulari turmush tarzini ilk bor tadqiq qiluvchilardan biri bo'ldi. Shundan boshlab dunyoning turli joylaridagi xalqlar miflarini qiyoslash imkoni paydo bo'ldi va qiyosiy mifologiyaga asos solindi. Qiyosiy mifologiyani o'rganishda ko'proq miflarning o'xshashligiga, qadimda ularning kelib chiqishi qonuniy xarakteriga e'tibor qaratildi. Italyan faylasufi Dj. Viko mifologiyani chuqur tadqiq etdi. U miflarni "ilohiy poeziya" sifatida qaradi. Uning mif falsafasi mifologiyani o'rganishda kelgusidagi deyarli hamma yo'nalishlarning boshlanishini o'z ichiga qamrab oldi.

Miflarni ratsional talqin qilishga ilk urinishlar ularni allegoriya sifatida tushunish bilan bog'liqdir. Tadqiqotchilar miflarda qochirish

¹ Веселовский А.Н. Историческая поэтика... – Б. 133.



ni, o'g'itlarni, o'xshatishlarni, ishoralarni ko'rdilar. Miflarga bunday yondashuvning yorqin namunasini tajribaviy bilimlar metodologiyasining asoschisi F. Bekonda ko'ramiz. U "Qadimgilar donishmandligi haqida" risolasida antik miflarni va ularda yashiringan donishmandlikni bayon qildi. U miflarning mohiyatini quyidagicha o'xshatish orqali ifodalagan edi: "Miflar menda shunday taassurot qoldiradiki, yaxshi siqib olinmagan bir bosh uzumdan nimadir olingan, ammo eng yaxshi qismi qolib ketib, foydalanilmaganday tuyuladi".

Folklor poetikasining muhim xususiyatlari. Rus adabiyotida xalq og'zaki ijodi mavzusi g'oyat xilma-xil bo'lib, ko'plab janr va folklor turlari mavjud. Ularning barchasi asta-sekin, bir necha yuz yillar davomida namoyon bo'lgan odamlarning hayoti va ijodiy faoliyati natijasida shakllandi. Hozirgi vaqtda adabiyotda folklorning o'ziga xos turlari mavjud. Og'zaki xalq san'ati bu noyob bilim qatlamidir, uning asosida minglab klassik asarlar qurilgan.

Folklor og'zaki badiiy ijod bilan birga she'riy, nasr janrlari va urf-odatlarini o'z ichiga olgan og'zaki folkloridir. Folklor janrlari turli yo'llar bilan tasniflanadi, lekin asosan bir nechta janr guruhlari ajralib turadi:

1. Mehnat qo'shiqlari – ish jarayonida shakllanadi, masalan, ekish, shudgorlash, pichan tayyorlash. Ular turli xil qichqiriqlar, signallar, ohanglar, ajraladigan so'zlar, qo'shiqlar.
2. Taqvim folklori – fitna, xiyla.
3. To'y folklori.
4. Dafn marosimlari, yollash marosimlari.
5. Ritual bo'lmagan folklor – bu kichik folklor janrlari, maqollar, masallar, omma va hikoyalar.
6. Og'zaki nasr – afsonalar va hikoyalar.
7. Bolalar folklori - pestushki, bolalar bog'chasi, lullabiya.
8. Qo'shiq dostoni (qahramonlik) – dostonlar, qo'shiqlar (tarixiy, harbiy, ma'naviy).
9. Badiiy ijod – hayvonlar, balladalar, romanlar, afsonalar haqidagi sehrli, kundalik ertaklar.
10. Folklor teatri – jannat, tug'ma sahna, kiyinish, qo'g'irchoqlar bilan chiqish.



Mifologik maktab nazariyasi.

Dunyo folklorshunosligidagi keng tarqalgan ilmiy yo'nalishlardan biri. Bu maktab vakillari mifologiya, mifik obraz, mifologik syujet va motivlar folklorning zaminini tashkil etadi deb hisoblaydilar.

XIX asrda bir qator mifologik maktablar, nazariyalar shakllandi. Jumladan, mifologiyada Angliya antropologiya maktabi (E. Taylor, J. Frezer, Dj. Xarrison, S.E.Xeyman va b.) ritualizm va funksionalizmni, fransuz sotsiologiya maktabi (E.Dyurkgeym, Levi Bryul) diniy-mifologik fikrlashni, nemis ritual maktabi (E.Kassirer) simbolizm nazariyasini shakllantirdi.

Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy yordirma vositasida izohlasada, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan. Qadimgi odamning tabiatni tushunishi va voqelikni idrok etishi g'oyat murakkab tafakkur hodisasi hisoblanadi. Ajdodlarimiz o'zini o'rab olgan moddiy olamning sir-asrorlarini tushunishga, tabiiy hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qilar ekan, butun borliqni bor bo'y-basti bilan qabul qilgan. Moddiy olamdagi voqelikni idrok etishda obrazlilik va poetik ramzlardan foydalanish esa badiiy ijodga xos belgi bo'lib, voqelikka ongli hissiy munosabat bildirishga asoslanadi. Dunyodagi moddiy mavjudlikning paydo bo'lishi, muayyan tabiiy hodisalarning ro'y berish sabablari, tabiat va inson munosabati masalalari qadimgi odam ongida asotiriy tarzda talqin qilingan. Olam haqidagi ana shu eng qadimgi e'tiqodiy qarashlar asosida dastlabki mifologik tasavvurlar tizimi kelib chiqqan¹.

Folklorshunos olimlar insoniyat tafakkuri taraqqiyoti-ning ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning qadimiy vositalaridan biri, badiiy tafakkurning ibtidosi ekanligini ta'kidlashadi. Mifologiyaning asosini qadimgi odamning koinot, tabiat, inson, osmon jismlari, voqea-hodisalarning paydo bo'lishi haqidagi miflar tashkil etadi. Mifologiyaning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar tizimi g'risi-

¹T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. O'zbek folklori. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T., 2020.



dagi shamsiy, qamariy va stral miqlar, olamning paydo bo'lishi haqidagi samoviy miqlar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik miqlar, qadimgi e'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etgan totemistik, animistik va kult miqlaridan tashkil topgan. Dehqonchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan hududlarda esa tabiiy-iqlimiy o'zgarishlarning ramziy-metaforik talqinlari asosiga qurilgan taqvimiy (kalendar) miqlar va o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miqlar shakllangan. Jumladan, Osiris (qadimgi Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O'rta Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan.

"O'zining ilk taraqqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy inonchlaridagina iborat bo'lgan mifologiya insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, jamiyat va tabiat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz va tasavvurlar silsilasini o'z ichiga olgan mukammal tizimga aylangan. Ijtimoiy ongning animizm, totemizm, fetishizm kabi qadimiy shakllari mifologiya bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Ibtidoiy dunyoqarash tizimi sifatida shakllangan mifologiya qadimgi diniy e'tiqodlarning ilk kurtaklari, ajdodlarimizning falsafiy, axloqiy va ijtimoiy qarashlari, olam va odam hayotiga doir eng sodda tushunchalari, voqelikni ongsiz-hissiy anglash asosiga qurilgan ramziy-metaforik obrazlar, shuningdek, so'z san'ati, marosimlar tizimi va mifologik tafakkurning turli xil shakllarini o'z ichiga qamrab olgan. U qadimgi odamning borliq olamni idrok etishga doir tasavvur va qarashlarini o'zida jamlagan izchil tizim sifatida ibtidoiy mafkuraning yetakchi g'oyasi bo'lib xizmat qilgan¹.

Ammo muarrix yilnomachi e'tibor bergan voqealarga qo'shiqchi ham e'tibor berganmikan, degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Albatta, qo'shiqchining vazifasi, xuddi bugungi tarixiy romanlardagi singari, qahramon atrofida tarix yaratish emas, balki xalq qo'shiqlaridagi qahramonni ideallashtirish, uning xalq qo'shiqlarida yorqin obrazini yaratish, unga katta ijtimoiy vazifa yuklash, xalqning dardi bilan yashovchi qahramon sifatida ko'rsatish va hokazolar bilan bog'liq, ya'ni qo'shiqchi agarda yilnoma bilan yaxshi tanish bo'lsa ham, so'zsiz

¹T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. O'zbek folklori. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - T., 2020.



o'z nuqtai nafari bo'yicha qahramonga munosabatini bildiradi. Masalan, qadimgi fransuz xalq qo'shiqlarining juda ko'pchiligi Buyuk Karlga bag'ishlangan. Keyingi asrlarda ham tarixiy shaxslar atrofida fransuz xalq qo'shiqlari yaratilgan, Buyuk Karl haqidagi qo'shiqlar bilan o'sha tarixiy shaxslar haqidagi qo'shiqlar qo'shib ketgan, Buyuk Karl boshqa "epik qahramonlarning yelkasida katta bo'lgan".

Yuqoridagi tarixiy va xalq qo'shiqlarining munosabatidan kelib chiqqan holda, kantilenlarning vazifasi haqida shuni aytish kerakki, qo'shiqchi bitta shaxs yoki voqea haqida bitta emas, balki bir necha qo'shiqni bilgan. Qo'shiqchi qo'shiqlarni qatorasiga kuylayvergan, natijada bitta qahramon yoki voqea yuz bergan joy (masalan, Borodino jangi) haqida qo'shiqlar turkumi yaratilgan. Ayniqsa, serb xalq qo'shiqchisi Vuka Karadjichning (XIX asr) arxividagi xalq qo'shiqlari bu jihatdan nihoyatda diqqatga sazovor. Uning arxivida qadimgi davrga oid qo'shiqlar orasida bur turkum qo'shiqlar uchraydi. Masalan, shoh Lazar va shahzoda Markoga bag'ishlangan qo'shiqlar shular jumlasidandir. "Knyaz Lazarning qasami", "Shoh Lazar va malika Militsa", "Shahzoda Marko uylanadi", "Shahzoda Marko otasining qilichini taniydi", "Shahzoda Marko va Muso qaroqchi", "Marko ramazon oyida may ichadi", "Shahzoda Marko yer haydaydi" kabi qator qo'shiqlardan ham yilnomalardagi tarixiy voqealarni talab qilib bo'lmaydi. Xuddi kantilenlar singari liro-epik xarakterdagi qo'shiqlardir. Agar bu qahramonlarga bag'ishlangan qo'shiqlar birlashtirilsa, epos hosil bo'lishi tabiiy. Ammo bu qahramonlar haqidagi qo'shiqlarni turli qo'shiqchilar ijro etganlar. Demak, kantilenlardan eposga o'tish jarayoni bir necha qo'shiqni bitta ijrochi kuylashiga bog'liq emas ekan. Qo'shiqlarni turkumlashtirish natijasida Roland haqida qo'shiq, Nibelunglar haqida qo'shiq kabi qadimgi dostonlarning shakllanishi haqida ham muayyan izohlarni va talqinlarni topishimiz mumkin.

"Qo'rquq ota kitobi" da xalq qo'shiqlari. Turkiy xalqlarda liro-kantilenlardan epos hosil bo'lishiga olib boradigan eng yaxshi namuna "Dada Qo'rquq" kitobidir. Bu kitobiy doston bo'lib, XV asrda yozilib qoldirilgan. Doston o'n ikki qo'shiq (*boy*)dan tashkil topgan. Har bir qo'shiq mustaqil asar bo'lgani holda birlashtirilib, dostonni hosil qilgan. Zotan, har bir qo'shiqning qahramoni bitta - Qo'rquq ota.



Rashididdinning "Jome' ut-tavorix" asarida O'g'uzxon haqidagi ma'lumotlarida Qo'rqut Ota qabilalari haqidagi ma'lumotlar mavjud emas. Afsonaviy turk o'g'uzlarining faqat og'zaki tarixigina mavjud. Abulg'ozining "Shajarayi tarokima" asarida turkmanlarning jonli so'zlashuv tilidan samarali foydalanilgan. "Qo'rqut ota kitobi"dagi rivoyatlarning ba'zi parchalari "Shajarayi tarokima"da ham uchraydi. "Qo'rqut ota kitobi"da turkiy xalqlarning mifik dunyosi aks etgan. Qo'rqut ota o'z davrining Alloh nazar solgan donishmandlaridan biridir. U odamlarga yaxshilik qilib, mushkullarini oson qilish, kelajakni bashorat qilish xususiyatlari bilan nom qozongan. "Qo'rqut ota kitobi"dagi o'n ikki afsona muhim ahamiyatga ega. Abulg'oz o'z asarida shu afsonalardan o'rni bilan foydalanadi. Qo'rqut otaning o'gitlarini uning o'z tilidan bayon qiladi. "Shajarayi tarokima"ning bu xususiyatlari uni O'g'uzxon haqidagi boshqa epik syujetlardan ajratib turadi. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Qo'rqut ota turk ulusi orasida dono so'zlari bilan shuhrat topganini ta'kidlaydi¹.

"Qo'rqut otada xalqning quvonchli va tashvishli kunla-rida ko'rinadigan, ularga maslahat va madad beradigan obrazdir. Shunday xususiyati bilan u bizga turkiy xalqlarning ilohiy maslahatchisi qiyo-fasidagi ulug' timsolni eslatadi. O'rni kelganda ta'kidlash kerakki, oltay turkiylari osmon xudosini "Qo'r bo'ston" deb atashgan. Bizningcha, Qo'rqut – yaxshilik, baraka, baxt ulashuvchi, degan mazmunni ifodalaydi. Asar XV asrda yozib olingan. Bu uning hujjatlashtirilgan davridir. Aslida "Qo'rqut ota kitobi" Islom dini turkiy xalqlar hayotiga singishib ketmasdan ancha asrlar avval yaratilgan. Dostonning boshlanmasida Qo'rqut ota o'g'uzlar orasidagi eng birinchi odam deb ko'rsatilgan. Demak, Qo'rqut ota o'g'uzlar uchun tarixning boshlanishi, o'g'uz urug'lari undan tarqalganlar. Asardagi bunday dalil Qo'rqut ota haqidagi syujetlar miloddan avvalgi asrlarda tug'ila boshlaganini ko'rsatadi. Qo'rqut ota hamma narsani biluvchi, kelajakdan xabarlar beruvchi ulug' siymo sifatida tasvirlanadi. Uning bunday xususiyati miloddan avvalgi III minginchi yillarda yashagan Bilgamish xoqon

¹ Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. www.ziyouz.com. – Б. 3.



haqidagi adabiy syujetlarni yodga soladi"¹, – deb yozadi, Abdurashid Abdurahmonov.

"Shajarayi tarokima"da (38-bet) Qo'rqut ota to'g'risidagi rivoyatlar ham o'rin olgan. U ikki yuz to'qson besh yil umr ko'rib, uch podshohga vazir bo'lgani, o'g'uz elini o'zining tadbirkorligi va dono siyosati bilan boshqargani, podshohlarga to'g'ri maslahatlar bergani muallif tomonidan qalamga olingan. Abulg'ozining yozishicha, Qazan Alp Qo'rqut ota bilan bir zamonda yashagan. U Makkaga borib, hoji bo'lib kelgan. Bu tartimi Qo'rqut ota tilidan aytilgan.

Kantilenlar birlashib, yirik epik asar hosil qilishi uchun xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lishi shart emas. Hamma gap – asar qahramonining yagonaligida. Masalan, "Bibliya", "Avesto", "Manas" kabi yirik asarlar kantilenlar asosida hosil bo'lgan deb qarash mumkin. Bibliya tarkibidagi oltmish oltita kitobning qahramoni – Yahve (ya'ni Xudo), "Avesto"ning bosh qahramoni – Zardusht, "Manas" eposining bosh qahramoni – Manas. Gap bu asarlarning katta hajmdaligida emas, balki bir necha asrlar davomida qo'shiqlar shakllana borib, har bir qo'shiq bitta qahramon atrofida birlashadi. Masalan, Bibliyaning ilk syujetlari miloddan oldingi XIV – XIII asr boshlarida shakllana boshlagan. Miloddan oldingi IX asrda esa ilk bor yozib olinib boshlagan. Taxminan milodning II asr oxiri – III asr boshlarida yakunlangan va yaxlit kitob holiga keltirilgan. Biz uchun kitoblardagi aqidalar muhim emas, balki bir necha kitoblardan yaxlit bir kitobning hosil bo'lish yo'llari, usullari, Bibliya tarkibidagi har bir kitob Musoning Tavrotidagi aqidalarni izchil davom ettirishi muhimdir. Yahve obrazi Musoning Ibtido kitobida bor edi va oxirgi kitob – Vahiy kitobigacha bu obraz davom etgan. Buning natijasida g'oya va maqsad jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan kitoblar birlashtirilib, Bibliyani hosil qilgan.

"Avesto"ning shakllanishi haqida ham shunday gapni aytish mumkin. Asarning qadimiy qatlami Gohlarning paydo bo'lishi va boshqarish qismlarining shakllanib, yaxlit asar "Avesto"ni yuzaga keltirishi eposlarning shakllanish jarayonini o'zida ifoda etadi. Asarni tashkil qilgan

¹ Абдурахмонов А. Энг қадимдан исломгача бўлган давр. – Самарқанд: 2006. Qarang: <https://ziyouz.uz/.../qahramonlik-va-donishmandlik-kitobi/>



qo'shiqlar, bo'limlar, fargard va hokazolar aynan kantilenlarni o'zida ifoda etadi. Shuning uchun bu har ikkala asar ham kantilenlardan tashkil topgan, deb aytish mumkin.

Umuman olganda, tarixiy poetika folklor asarlari zahirida og'zaki ijodda ilk adabiy shakllar, eposga xos xususiyatlar, adabiy janrlar shakllanishini poetik jihatdan tadqiq etishni nazarda tutadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Tarixiy poetika va folklorning bog'liqligi haqida gapiring?
2. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot.
3. Folklor janrlarining o'ziga xos xususiyatlarini ayting?
4. Adabiy janrlarning e'tiqod va ishonch bilan bog'liqligi.
5. Mifologik maktablar nazariyasi haqida gapirib bering?
6. Mifologiya va folklorning qanday bog'ligi bor?
7. Qadimgi epik syujetlarda mifologik qarashlarning ta'siri qanday bo'lgan?
8. Yozma manbalarda mifologik qarashlar.
9. Kantilenlarning yozma adabiyotdagi o'rni?
10. "Qo'rqut ota kitobi" haqida nimalarni bilasiz?
11. "Qo'rqut ota kitobi"dagi boylar haqida gapiring?
12. Qadimgi eposlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar?

Adabiyotlar:

1. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – С. 133.
2. Abdurahmonov A. Eng qadimdan islomgacha bo'lgan davr. – Samarqand, 2006.
3. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. O'zbek folklori. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T., 2020.
4. <https://ziyouz.uz/.../qahramonlik-va-donishmandlik-kitobi/>
5. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. www.ziyouz.com.



5- MAVZU: ARISTOTELNING ADABIY-NAZARIY QARASHLARI

Reja:

1. Aristotel "Poetika"sining adabiyotshunoslik fanining rivojida tutgan o'rni.
2. Aristotelning qadimgi yunon eposi va dramasi tarkibidagi umumiy qonunlarni ajratish prinsiplari.
3. "Poetika" asarining Sharq adabiyotiga ta'siri.
4. Xulosa.

Tayanch so'z va iboralar: "Poetika", "Poeziya", Arastu, yunon eposi, mimesis, san'at turlari, katarsis, epos, lirika, drama, trop, metafora, taxayyul, to'qima, sharq adabiyoti.

Aristotel "Poetika"sining adabiyotshunoslik fanining rivojida tutgan o'rni. "Poeziya", ya'ni badiiy adabiyot so'zining ilmiy muomalaga kiritilishi Aristotel nomi bilan bog'langan. Aristotel o'zining "Poetika" asarida badiiy adabiyotni shu nom bilan, ya'ni poeziya deb nomlagan. Hozirgi zamon ilmi esa badiiy adabiyot tarkibidan faqat she'riyatni poeziya nomi bilan ataydi. Ammo Aristotelning nima uchun badiiy adabiyotni "poeziya" deb ataganligida jon bor. Chunki, Aristotel davridagi dastlabki adabiyot, ya'ni epos va drama – marosim xorlaridagi rivoyat va hajviy dialog asosida yozilgan she'riy asarlardan iborat bo'lgan.

Aristotel "Poetika" asarining asli nomi "Poeziya" san'ati to'g'risida deb nomlangan. Aristotelning bosh maqsadi qadimgi yunon adabiyotidagi rivojlanish jarayonlarini tanqidiy anglash va ular asosida alohida xulosalangan tizim yaratishdan iborat bo'lgan. "Poetika" so'z san'atiga bag'ishlangan maxsus tadqiqot ekanligi, unda faylasufning adabiy-estetik qarashlari muayyan tizim holida ancha to'liq ifodasini topganligi bilan qimmatlidir. Afsuski, asar matni to'la emas. Asarni uch qismga bo'lish mumkin:

- Poeziyaning tabiati haqidagi umumiy mulohazalar;



- Tragediya janri haqida;
- Epos, lirika va komediyaga bag'ishlangan qismlar.

Shundan tragediya janri tadqiq qilingan dastlabki qism va epos, lirika va komediyaga bag'ishlangan qismlar bizgacha yetib kelmagan.

"Poetika"ning ilmiy qimmatini belgilagan narsa shuki, undagi nazariy umumlashmalar, ishlab chiqilgan talablar qadimgi yunon adabiyotining boy materialini tahliliga tayanadi. Ikkinchi muhim jihat esa unda izchil, tizimli fikr yuritilgani, qo'yilgan har bir masala bo'yicha yaxlit ilmiy konsepsiyani ifodalaniishi bilan belgilanadi. Masalan, tragediya janriga to'xtalarkan, avvalo, uning janr spetsifikasini belgilab oladi hamda uni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlar – voqea, mif, fabula, xarakter, til va uslub kabi masalalarni navbati bilan bir-bir ko'rib o'tadi. Bu xususiyatlar "Poetika"ning adabiyotshunoslikda nafaqat qadimiy, balki chin ma'noda mumtoz asar ekanligidan dalolatdir.

Aristotelning qadimgi yunon eposi va dramasi tarkibidagi umumiy qonunlarni ajratish prinsiplari. Aristotel qadimgi yunon eposi va dramasi tarkibidagi umumiy, qonunlashgan holatlarni, ya'ni badiiy tur elementlarini ilmiy aniqlashga, badiiy adabiyotni esa tur va xillarga bo'linishiga asos solgan. Primitiv tarzda bo'lsa ham badiiy aks ettirish (*художественное отражение* – mimesis) badiiy adabiyot va boshqa san'at turlarining vujudga kelish prinsipi ekanligi to'g'risidagi fikr ham Aristotelga tegishlidir. **Mim**, ya'ni biz "masxaraboz" deb bilgan so'z ham, qadimgi yunonchadan "taqlid qiluvchi" deb tarjima qilinadi. Aristotel fantaziya orqali hayotning o'xshashi obrazlarda yaratilishi haqida gapiradi hamda ana shu jarayonni "mimesis" deb ataydi. Shuningdek, "katarsis" to'g'risidagi ta'limot ham adabiyotshunoslikka Aristotel tomonidan kiritilgan. Katarsis qadimgi yunonchadan "**poklanish**" mazmunida tarjima qilinadi. Pifagor ta'limoti bo'yicha musiqa qalbni poklash uchun tavsiya etiladi, ya'ni musiqani eshitish va anglash jarayonida inson estetik va etik prinsiplari shakllanadi. Ana shu katarsis g'oyasi asosida keyinchalik Aristotel adabiyotshunoslikda "katarsis" atamasini qo'llagan. Katarsis badiiy adabiyotning musiqa kabi insonga ta'siri va ana shu ta'sirning inson ongi va shuurini poklash qobiliyatiga egaligi haqida-



gi adabiy tushunchadir. Qalbni poklash qadimgi Gresiyada ko'plarni qiziqtirgan bo'lib, Geraklid olov bilan poklanish, Platon esa insoniy hissiyotni o'ziga bo'ysundirish tananing o'z ruhidan ozod bo'lishiga tengligi to'g'risidagi fikrni ilgari surgan. Aristotel musiqa bilan poeziyaning juda katta tarbiyaviy ahamiyati haqida gapiradi hamda mazkur san'atlar insonning poklanishi (tarbiyalanishi) uchun xizmat qiladi, deb hisoblaydi. Hozirgi zamon adabiyotshunosligi va nazariyasining asosiy tamoyillarini belgilovchi ko'pchilik istilohlar ham ilmga Aristotel tomonidan kiritilgan. Masalan, **epos, lirika va drama, asar fabulasi**, badiiy matnda uchrashi mumkin bo'lgan badiiy **trop**, ya'ni badiiy sifatlash usullari bo'lgan **metafora, metonimiya, sinekdoxa** atamaları ham Aristotel tomonidan birinchi bor nazariyaga kiritilgan va tushuntirilgan.

Aristotelning, adabiyot to'g'risidagi fanni so'z san'ati sifatida rivojlantirishdagi bosh roli shundaki, u boshqa olimlardan farqli o'laroq, (masalan Gorasiydan), adabiyotshunoslikni nazariy fan darajasiga ko'tarib, uni normativlikdan qutqarganligidadir. Shu bilan birga badiiy adabiyotni badiiylik hodisasi sifatida nazariy anglash Aristotel tomonidan boshlab berilgan bo'lib, so'zsiz, bu ta'limot o'z ta'sirini ham G'arb adabiyotiga, ham Sharq adabiyotiga o'tkazgan.

Mashhur yozuvchi va adabiyotshunos olim Taxa Husayn dunyo sharqshunoslarining anjumanida (1931-yil) qilgan ma'ruzasida, arab ritorikasi (notiqlik san'ati) o'zining ibtidosida uch yaxlit elementni arab, fors va yunon elementlarini mujassamlashtirgan deydi. Ana shu sanab o'tilgan elementlar ichida yunon elementi Aristotel ta'limotiga suyanishi tabiiydir. Umuman olganda, adabiyot ilmi, ko'pchilik sohalarda bo'lgani kabi tarixiy rivojlanish davrida o'zida turli yo'nalishlar va tasavvurlar oqimini mujassamlashtiradi va adabiyot ilmining bugungi takomili qadimgi davrlardan boshlab ilmga sadoqat bilan xizmat qilgan minglab olimlar kashfiyotlari majmuidan iboratdir.

Masalan, adabiyotdagi fantaziya, yoki "yolg'on" haqidagi fikr qadimgi yunon olimi Gesiod tomonidan fanga kiritilgan. Gesiod fikriga ko'ra, asardagi aks ettirish jarayoni – fantaziya asosiga qurilgan. Chunki, badiiy aks ettirish aslan aks ettirish bo'lmay, ya'ni hayotning aynan, to'g'ri aks etishi bo'lmay, balki "yolg'on", ya'ni tasavvur etilgan.

aks ettirishdir. Mana shu g'oya keyinchalik O'rta asrlarda arab olimlari tomonidan o'ziga xos tarzda rivojlantirilgan. Ibn Rashi: "Real hayotda qoralana-digan har qanday yolg'on she'riyatning fazilati hisoblanadi", deydi. Ibn Muqaffa esa: "Notiqlik aniq bo'lmagan haqiqatning yolg'on tarzida kelishidir", deb aytadi.

"Poetika" asarining Sharq adabiyotiga ta'siri. Aristotelning adabiyot prinsiplariga bag'ishlangan "Poetika" asari Sharq davlatlarida ham, G'arb davlatlarida ham O'rta asrlarda adabiyot to'g'risidagi ilmning keng rivoj topishi uchun turtki, katalizator vazifasini o'tadi. Sharq mamlakatlarida X-XI asrlarda Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd va boshqa faylasuflar ijodida "Al-muallimi al-avval", ya'ni "birinchi muallim" Arastu (Aristotel) ilmiy-nazariy qarashlarining sharhlashi va rivojlantirilishi keng kuzatiladi. Aristotel asarlariga yozilgan sharhlar va Aristotel fikrlarining turli fan sohalarida rivojlantirilishi bois, musulmon Sharqida Farobiy "Al-muallimi as-soniy", ya'ni "ikkinchi muallim" sharaflil nomiga sazovor bo'ladi. Aristotel "Poetika"sini dastavval, Abu Bashr Matta (vafoti 932) suriyoniy tili-dan arabiyga tarjima qilgan, Yaxyo ibn A'diy (vafoti 960) esa asarni yana suriyoniydan tarjima qilgan. Ibn Sino ana shu ibn A'diy tarjimasini asosida unga sharhlar yozgan. Ibn Rushd ham ibn A'diy tarjimasini sharhlagan. XII asrda Toledoda ibn Rushd sharhini olmoniyalik Xermen (vafoti 1256) lotin tiliga o'g'irgan. Insoniyat madaniyati tarixida Aristotelning "Poetika" asari anchayin murakkab taqdiri boshidan o'tkazib, musulmon arab madaniyati va G'arb renessansi tarkibida bizning davrimizgacha eramizdan oldingi III asrdan yetib kelgan.

Farobiy "she'r san'atini bezaydigan narsa so'zdir", - deydi. Olim so'zning ta'siri kuchi mavjudligini tan oladi va unga ishonadi. Shu bois, ko'pchilik shoirlar o'z fikr va mulohazalarini boshqalarga o'tkazadilar, deb hisoblaydi. Olim fikriga ko'ra, vaznni buzmaslik she'r qurilishining to'kis, tarashlangan bo'lishiga olib keladi. Ammo Farobiy hozirgi ma'nodagi adabiy turlar va janrlar tuzilishini aniq idrok eta olmagan. Ibn Sino tasavvurida ham badiiy adabiyotning tur va janrlarga bo'linishi ilmiy tafakkur darajasida emas. Ibn Sino she'riy asarning inson va uning ruhiyatiga ta'siri, she'r insonni taajjublantiri-

shi, hissiyotlarini kuchaytirishi, she'rning o'zida "tuyg'u" bo'lishi haqida gapiradi. "Farobiy va Ibn Sinolar Aristotel "Poetika"siga yozgan sharhlaridagi qarashlarida epos va drama haqida, shuningdek, turni aniqroq izohlab berishga qaratilmagan edi". Keyinchalik esa qadimgi yunon ilmiy tafakkurining Sharqda ilmiy-ijodiy o'zlashtirilgan natijalarini, uning Yevropa madaniyatiga ta'siri va mazkur ta'sir asosidagi adabiyot nazariyasi rivojini ko'rish mumkin. "Sharq ta'siri faqat ilm-fan, falsafadagina emas, adabiyotda ham ancha sezilarli bo'ldi. Ovrupadagi dunyoviy mazmundagi adabiyot dastavval Ispaniyada, avval arab tilida, keyinchalik mulamma (she'ru shakar) turida shakllandi. Bu she'rlar ko'pincha zajal¹ va muvashshah janrlarida yaratilgan bo'lib, ayniqsa, zajal keng rivoj topgan. Ibn Kuzman zajallari odatda, ikki qismdan iborat: birinchisi - yorqin elementlarga ega bo'lgan muhabbat haqidagi kirish qismi, ikkinchisi - albatta xayriya so'ralgan madhiya. Ibn Kuzman zajallari qadimgi roman she'riyatidan kelib chiqqani, shubhasiz. Ibn Kuzmanning zajallari ham musiqa bilan chambarchas bog'liqdir. Arab-ispan she'riyatining trubadurlar she'riyatiga ta'sirining miqdori va xususiyatini aniqlash qiyin, ammo ta'sir etganligi shubhasiz.

Sharq bilan uchrashmaguncha Ovrupa mamlakatlari, xatto ilg'or Fransiyada ham yozma adabiyot din arboblari tomonidan diniy mazmunda, lotin tilida yaratilgan asarlardan iborat bo'lgan. O'rta asrlar Yevropa adabiyotidagi keng tarqalgan, hamda inson ichki ruhiyatiga qaratilgan romantizm hodisasining ilk vatanlaridan biri ham sharqdadir. Romantizm asosida ham sharq (arab va musulmon) adabiyoti namunalari ta'siri, aniqrog'i uning arab ishqiy lirikasi asosida shakllanganligi, ya'ni G'arb romantizmi asosida Sharq ishqiy lirikasi yotishi ham isbotlangan ilmiy faktdir. Aristotel va Gorasiylarning she'r san'atiga aloqador bo'lgan ilmiy qarashlari keyinchalik Yevropada keng tarqalgan renessans, ya'ni Uyg'onish davrida, aniqrog'i XIV-XVI asrlarda, arab-musulmon madaniyati ta'siri orqali qayta shakllantirilib, ya'ni Yevropa poetikalarining kelib chiqishiga asos bo'ladi.

¹Arab adabiyotidagi baytli she'r.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Aristotel "Poetika"ning jahonshumul ahamiyatini ko'rsating.
2. "Mimesis" atamasini izohlang.
3. "Katarsis" nazariyasini izohlang.
4. Aristotel ta'limoti Sharq adabiyotida qanday rivoj topgani haqida ma'lumot bering.
5. G'arb va Sharq madaniyatlarini o'zaro ta'siri va mutanosibligini ochib bering.
6. G'arb adabiyotida Aristotel poetikasini sharhlang.
7. Mumtoz Sharq adabiyotida poetika masalalari.
8. Aristotelning "Poetika" asariga kimlar sharh yozgan?
9. Aristotelning so'z haqidagi qarashlarini tahlil eting?
10. Adabiy turga ajratish masalasida Aristotel yondashuvi qanday bo'lgan?

Adabiyotlar:

1. Хализев В.Е. Теория литературы. – М., 2000.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., 2002.
3. Куделин А.Б. Средневековая арабская поэтика. – М., 1983.
4. Sharq mumtoz poetikasi: manba va talqinlar. – T., 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar:

5. Луков В.А. История литературы. Зарубежная литература от истоков до наших дней. – М., 2005.
6. Борийев Ю. Эстетика. Теория литературы: энциклопедический словарь терминов. – М., 2003.
7. Ziyovuddinova M. Abu al-Xorazmiyning "Mafotix al-ulum" asari-da poetika. – T., 2001.

**6-MAVZU: FAROBIYNING ADABIY-NAZARIY QARASHLARI****Reja:**

1. Abu Nasr Farobiy hayoti va faoliyati.
2. "Shoirlar san'ati qonunlari haqida" asari.
3. Farobiy so'z va she'r ilmi haqida.
4. Xulosa.

Tayanch so'z va iboralar: Abu Nasr Farobiy, Farob, "muallim as-soniy", adabiy-nazariy qarashlar, "Shoirlar san'ati qonunlari haqida", shoirlar tasnifi, Arastu "Poetika"si, sharh, "She'r san'ati qonunlari haqida", she'r va so'z xususida.

Abu Nasr Farobiy hayoti va faoliyati. Farobiy 872-yili Farob shahrida tug'ilib, 951-yili Damashqda vafot etgan. Sharqda "muallim as-soniy" (ikkinchi muallim) deb nom olgan Abu Nasr Farobiy tabiatshunoslik, metafizika, matematika, mantiq, astronomiya, tibbiyot, axloq, musiqa kabi fanlar bilan shug'ullanib, juda katta boy ilmiy meros qoldirdi. U Aristotel ishlariga sharhlar yozdi va "ikkinchi muallim" degan unvon unga shu sababli berilgan. Abu Nasrning g'oyalari ibn Sino, ibn Tufayl, ibn Rushd kabi mashhur faylasuflarning hamda o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasiga ta'sir ko'rsatdi. O'tror kutubxonasi-ning tashkil topishi uning nomi bilan bog'lanadi.

Farobiyning tarjimai holini yaratish ishlari XI asrdan boshlangan. Jumladan, shu asrda yashagan Abu Said ibn Ahmad o'zigacha, ya'ni XI asrgacha yashagan buyuk donishmandlar haqida qomus tuzgan. Ana shu qomusda Farobiyning tarjimai holi yaratilgani haqida boshqa muarrixlar va biograflar Bayhaqiy, Kiftiy, ibn Abu Usaybiya, ibn Xolliqonlarning asarlarida ma'lumotlar berilgan. XI asrda yashagan Abu Said ibn Ahmadning qomusi topilmagan. Hamma manbalarda ham Farobiyning Farob (hozirgi O'tror) qishlog'ida tug'ilgani va Damashq shahriga borib madrasada muallimlik qilgani haqidagi ma'lumot berilgan. U Samarqandda, Shoshda madrasalarda



o'qigani va mudarrislik qilgani haqida ma'lumotlar bor. Buyuk faylasuf ta'lim olish uchun arab xalifaligining poytaxti Bog'dodga ketadi. Yo'l-yo'lakay u Eronning Isfahon, Hamadon, Roy (Tehron) shaharlarida bo'ladi. Farobiy Bag'dodda xalifa al-Muqtadir (908-932) hukmronligi davrida yashadi. Bu yerda u fanning turli sohalarini va tillarni o'rgandi¹. Ayniqsa, tibbiyotni, mantiqni va yunon tilini puxta egalladi.

Bag'dod o'sha davr ilm ahli uchun go'yo Makka kabi edi. Aynan Bag'dodda tarjimonlar maktabi shakllangan edi. Ular Aflotunning, Aristotelning, Galen va Evklidning asarlarini sharhladilar. Bu bilan baravar ravishda Hindistonning madaniy yutuqlarini o'zlashtirish jarayoni ham kechdi. Bunday ish mustaqil ijodiy faollikni oshirdi. Farobiyning tarjimonlik faoliyatiga Yuhanno ibn Xaylon va antik davr matnlarining arab tiliga mohir tarjimoni Abu Bishr Matto ustozlik qildilar. Abu Bishr Matto mantiqdan Farobiya ta'lim berdi.

Farobiy 941-yili Damashq shahriga ko'chib o'tadi va umrining qolganini shu yerda o'tkazadi, ilmiy ish bilan mashg'ul bo'ldi. U ilgari boshlagan "Fozil odamlar shahri haqida risola" kitobini Damashqda yozib tugatdi. Dastlabki yillari Farobiyning Damashqdagi hayoti oson kechmadi. Adabiyotlarda hikoya qilinishicha, u tirikchilik o'tkazish uchun bog'bon bo'lib ishlagan, ilmiy faoliyat bilan esa tunda mashg'ul bo'ldi. Kunduzi ishlagan mablag'iga sham sotib olardi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, Farobiya Xalab hukmdori Sayfuiddin ad-Davla Ali Hamadoniy (943-967) homiylik qila boshladi.

Abu Nasr Farobiy Sharqning "ikkinchi muallimi" degan nomga munosib ishlari orasida "Shoirilar san'ati qonunlari haqida" ("Risola fi qavoniyi sinoat ash-shuaro") alohida o'rin egallaydi.

Aristotelning asarlari haqida fikr-mulohaza bildirish, unga sharhlar yoki undan ta'sirlangan holda asarlar yozish Sharqda katta burch sanalgan. Jumladan, Aristotelning "Poetika" siga Abu Is'hoq al-Kindiy

¹Nasimxon Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrdan XV asrgacha). O'quv qo'llanma. - T., 2017.



(801-866) degan arab faylasufi ham kichkina bir kitob yozgan. Shu bois al-Kindiydan so'ng Farobiy, Ibn Sino va Ibn Rushd kabi mashhur allomalar ham Aristotelning "Poetika" siga o'zlarining munosabatlarini bildirganlar.

"Shoirilar san'ati qonunlari haqida" asari. Muhammad Farobiy o'zining - "Shoirilar san'ati qonunlari haqida" risolasi Arastu "Poetika" siga sharh ekanligini aytadi. Farobiyning ilk mulohazalaridan ko'rinadiki, u Arastu "Poetika" sining faqat bir qismini, boshqa o'rinlarda esa uning "Sofistlarga raddiya va "Sinoat al-mug'olatayn" ("Sofistlarning sirlari") asarlaridagi she'riyatga doir ayrim o'rinlarni sharhlaydi. Bizningcha, Farobiyning qo'lida Arastu "Poetika" sining chalaroq nusxasi bo'lgan. Buning uchun Farobiy risolaning boshlanishida o'quvchisidan uzr so'raganday: "Hakim Arastu o'zining shunday fazilati va dahosi bilan tugatib qo'yishga jazm qilmagan bir ishni biz nihoyasiga yetkazishga intilishimizdan ko'ra, bu san'atda foyda beradigan va hozirgi zamonda (Farobiy davridagi she'riyatga doir asarlarda) uchraydigan qonun-qoidalar, misol va mulohazalar bilan cheklansak yaxshiroq bo'lur edi"¹, deydi.

Farobiyning "She'r san'ati qonunlari haqida" nomli risolasi Aristotelning "Poetika" siga yozilgan sharhdir. Farobiyning yozishicha, Aristotelning "Poetika" asari oxiriga yetmay qolgan. Farobiyning vazifasi mavjud "Poetika" da aytgan fikr-mulohazalarini isbotlab ko'rsatishdan va uning ma'nolariga ishora qilishdan iborat bo'lgan edi. U she'rdagi so'zning vazifasi, mohiyati va maqsadi haqida fikr bildirib, birinchi navbatda, so'zning tuzilishi va ma'noli qismlarini, jumla takibidagi rolini, nihoyat, poetik vazifasini quyidagicha ochib beradi: "...ma'noni bildiradigan so'zlar sodda va murakkab bo'ladi. Murakkab bo'lgan so'zlar biror mulohazani anglatadi, yo anglatmaydi. Mulohazani anglatadiganlarining qat'iy jazmliligi va jazmsizi bo'ladi. Qat'iyalar yo to'g'ri, yo yolg'on bo'ladi. Yolg'onlarining ba'zilari eshituvchilar zehniga ma'nosi bilan o'rnashib qola-

¹Mahkam Mahmudov. Farobiyning adabiy-nazariy qarashlari. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2011-yil, 3-son.

di, boshqalari esa kishi ongida narsalarning o'xshashi – aksi bilan o'rnashib qoladi. Mana shu narsa o'xshatish – she'riy mulohazalar sanaladi”.

Farobiy bu asarida she'r vaznlari, adabiy turlar va janrlar, she'rdagi "yolg'on" – ko'chimlar orqali yuzaga keladigan fantaziya kabilarning tabiati va xususiyatlari haqida ta'rif beradi. Ayniqsa, she'riyat va shoir yoki umuman ijod ahli, ularning iste'dodi haqidagi Farobiyning aytgan gaplari bugungi adabiy jarayonda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. U yunon she'riyatiga tayangan holda so'z yuritgan bo'lsa ham, uning she'rni she'r qiladigan vositalar, she'riyatga qo'ygan talablari hamma davrdagi barcha xalqlar she'riyatiga tatbiq qilinishi mumkin bo'lgan qarashlardir. Uningcha, shoir ahli uch toifaga bo'linadi.

Birinchi toifasi shular: shoirlar chindan ham tug'ma qobiliyatli va she'r bitishga tayyor tabiatli kishilar bo'ladi, tashbih va tamsilga layoqatli bo'ladilar. Bir xil shoirilar she'r san'atidan yetarli xabardor bo'lavermaydi, balki tug'ma qobiliyatining o'tkirligi bilan qanoat hosil qiladilar. Ular o'zlarining iste'dod darajalariga ko'ra ish tutadilar. Ularda she'r san'atini o'zlashtirib olish uchun kamolot yetishmaydi. Kim o'sha toifadagi odamning yozgan she'rini ko'rib, u qobiliyatli odam ekan, deb o'ylasa, buni shunday tushunish kerakki, uning fe'l-atvorida shoirilarga xos turq-ko'rinish mavjudligi uchun shunday xulosaga kelgan.

Ikkinchi toifasi quyidagilar: bu xil odamlar chinakam shoirlik san'atini egallagan bo'lishadi, hatto she'riy ijodga xos xususiyatlaridan birontasi – u qaysi she'r turiga aloqador bo'lmasin – baribir, bu qonun-qoidalar undan qochib qutulmaydi. Ular she'riyat san'atida qo'llaniladigan tashbih va tamsillarni judayam mahorat bilan ishlata-dilar. Bu toifa shoirilar chindan ham qobiliyatli shoirilar deb aytishga sazovordirlar.

Uchinchi toifasi quyidagilar: yuqorida aytib o'tilgan ikki toifa shoirilarning fe'l-atvoriga taqlid qiluvchilar bo'ladi. Bu toifaga mansub odamlar ikkala toifa shoirilar yo'lini – ijodini yod oladilar. O'zlarida tug'ma qobiliyati bo'lmagan holda, she'riy san'at qonun-qoidalaridan xabardor bo'ladilar, tashbih, tamsil (metafora)lar ortidan boradilar.

Yo'ldan adashadigan shoirilarning ko'pchiligi ana shu tabaqa shoirilar ichidan chiqadi.

Umuman, Farobiyning mazkur risolasi o'z davrigacha bo'lgan adabiy jarayon qonuniyatlari va yo'l-yo'riqlari, shoirlik iste'dodi va ijod mas'uliyati haqida to'liq taassurot qoldiradi.

Farobiy so'z va she'r ilmi haqida. Farobiy "Ixso-ul-ulum" asarida (bu asarni "Ilmlarning kelib chiqishi" – "Hudusu-l-ulum"ga adashtirmaylik) she'riyat haqidagi qisqa mulohazalarini kitobning tilshunoslik va mantiq qismlarida keltiradi¹. Alloma bu risolada she'riy tafakkur qoidalarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tushuntiradi. Farobiy fikricha, shoir ona tilining leksik-semantik boyligini, Alisher Navoiy iborasi bilan aytgach, ma'nolar xazinasini yaxshi bilishi zarur.

Farobiy fikricha, inson fikr-mulohazalari besh tur-lidir. 1. Dalil, burhonli (mug'olata – g'alat, xato qiluvchi, yanglishtiruvchi). 2. Jadaliy (dialektik). 3. Sufastoiy (Sofistik). 4. Xitobiy (ritorik). 5. She'riy (poetik) fikr-mulohazalar farqlanadi. "Insonlarning ma'quloti (aqliy tushunchalari), ilmlari va san'atlari (kasb-hunarlar) shu quvvat ila qo'lga kiritilur. Ashyoning (narsaning) jiddiy (diqqat ila) tadqiqi shu quvvat bilan, go'zal va chirkin ishlar shu quvvat ila farqlanur. (Muhammad Farobiy. Ilmlarning soyimi. Milliy ejetim basimevi. Istanbul. 1986, B.75.) Shundan so'ng Farobiy dalil-burxonli fikr, jadaliy (dialektik) fikr, sufastoiy (mug'olata, g'alat, xato qiluvchi, yanglishtiruvchi) fikr, xitobiy (ritorik) fikrlar va she'riy tushunchalar haqida alohida ta'riflar, izohlar beradi.

"She'riy so'zlarga kelsak, – deydi mutafakkir, – ular suhbat vaqtida tilga olingan narsani va yo holatni, afzallik yoki kamlikni yanada aniqroq, ravshanroq tasvirlash, kuchaytirish uchun qo'llaniladi. Bu ham (she'riy tafakkur ham) go'zallik va chirkinlik, yuksaklik va tubanlik (olchoqlik)ni yoki shu kabi (hayot hodisalarini) tasvirlashdir". Farobiyning "She'r kitobi"dagi mana bu so'zlar ham "mimesis" – taqlid haqida aytilgan:

¹Mahkam Mahmudov. Farobiyning adabiy-nazariy qarashlari. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2011-yil, 3-son.



"Baytlardagi so'zlardan tushuniladigan ma'nolar o'sha so'z borayotgan (hind poetikasi "Dxanvyaloka"da ifodalanishi kerak ma'no va ifodalangan ma'no deyilgan) narsa va hodisalarga o'xshaydigan – taqlidiy bo'lmog'i kerak". (Farobiy. "She'r san'ati",) – T., 1979, 13-bet).

Muhammad Farobiy bu yerda Arastu "Poetika" sini sharhlayotgan bo'lsa-da (mazkur fikrlar "Poetika" sharhida yanada chuqurlashtirildi), "Ilmlarning xosiyatlari" da she'riyatning asosiy qonuniyati, tamoyili – "mimesis" (hayotga o'xshatish-taqlid san'ati) ekanligini tasdiqlamoqda.

"She'riy so'zlarni his etgan vaqtimizda, – deydi, Farobiy "Ilmlarning xosiyatlari" asarida, – ruhimizda hosil bo'lgan xayol (tasavvur) ning o'xshashi tasvirlangan bo'lsa, go'yo o'sha (she'rdagi) o'xshash narsaning o'zini ko'rganday his qilamiz o'zimizni".

Farobiy bu fikrini yanada chuqurlashtirib, bunday deydi: "Agar biz she'rda xushlanmaydigan (yoqimsiz) narsaning tasvirini o'qib, ko'z oldimizga keltirsak, bu xunuk narsa faqat surat (xayoliy) ekanligini bilsak ham, ruhimizda unga nisbatan nafrat, jirkanch hislar uyg'onadi va undan uzoqlashgimiz keladi". Shu o'rinda Farobiy she'rda tasvirlangan (sevinchli yoki qayg'uli) manzara, holat hayotda xuddi shu holda bo'lmasligini bilsak ham, she'riy so'z ta'sirida, o'sha voqea, holat shoir (rassom) tasvirlaganidek bo'lgan, deb ishonamiz, deydi, bu adabiy-nazariy fikr ham she'r san'ati tabiatini tushunish uchun juda muhim ahamiyatga egadir¹. Mutafakkir buning sababini quyidagicha tushuntiradi:

"Odamlar ko'pincha o'z mulohaza-o'ylari va ilmiy bilimlariga qarab emas, balki o'z tasavvurlari bo'yicha ish qiladilar, garchi qilayotgan ishi o'y-mulohaza va ilmiy bilimlariga zid kelsa ham. Odatda suhbatli tomoshalarda narsalarni yoki ish-harakatga o'xshash holatlarni tasavvur qilganida shu holatlarga tushadi".

Bu yerda Farobiy "suhbatli tomoshalar" deb, yunon tragediyalarini nazarda tutadi. Aktyorlar mujassamlantirgan, qahramonlarning

¹ Mahkam Mahmudov. Farobiyning adabiy-nazariy qarashlari. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2011-yil, 3-son.



xarakterlarini ochuvchi nutqi, dialoglarini u "suhbatli tomoshalar" deb atagan. Farobiyning odamlar ko'pincha *"o'y-mulohaza va ilmiy bilimlari bilan emas, tasavvurlari bilan harakat qiladilar"*, degan fikrini yanada aniq ravshan tushuntirish uchun, aytish kerakki, odamlar aqliy faoliyatda, ilm-fanlarda va san'at, kasb-hunarda o'y-mulohaza, aqliy bilimlarni ishga soladilar, lekin maxsus his qilinadigan, estetik idrok etiladigan olam, hayotiy voqea, hodisalarini tushinishda tasavvurlarga asoslanadilar. Bu fikr ilm-fanga emas, balki nafis san'atga, poeziyaga taalluqlidir.

Muhammad Farobiyning yuqoridagi mulohazalari Arastuning "Poetika" asarida she'riyat haqida aytgan fikrlariga hamohangdir: "Poetik san'atning kelib chiqishiga ochiq-oydin ikkita sabab bo'lib, ikkalasi ham tabiiydir. Birinchidan, taqlid, o'xshatish insonga bolalikdan xos bo'lgan xususiyat. Inson boshqa mavjudotlardan o'xshatish qobiliyatiga egaligi bilan ham farqlanadi. Hatto dastlabki bilimlarni u o'xshatishdan oladi va bu jarayon samaralari barchaga huzur bag'ishlaydi". Demak, Arastu fikricha, poeziya san'atining kelib chiqishiga birinchi sabab – odamlar bolalik chog'laridan taqlid, o'xshatishga, voqea, ish, harakatlarni qaytadan jonlantirishga, tasvirlashga moyilligidir. Bu fikrni yanada aniqlash uchun aytish kerakki, bunday qobiliyat birovda zaif, birovda (rassomlar, shoirlarda) kuchli bo'ladi va u tug'ma iste'dod deb ataladi. Ikkinchi sabab, Arastu fikricha, odamlarning tasavvur quvvatidir. U ham iste'dod bo'lib, turli odamlarda turlichadir.

Muhammad Farobiy she'riyatning kelib chiqishiga doir uchinchi sabab va manbani ham ko'rsatadi: *"Ba'zi xalqlarda oldin nag'ma – kuy yaratilib, keyin unga hamohang qilib, she'r bog'laydilar. Bunda she'rning bo'laklari kuyga bog'langani uchun xuddi ba'zi bir harflar tovushlarga o'xshab qoladi"*. Bu yerda Farobiy she'rning bo'laklari-turoqlari, radifi, qofiyasi tovushlarga o'xshab qoladi deb, kuyga, musiqaga o'xshashligini aytmog'da. Alisher Navoiy g'azallarining ko'pchiligi "Shashmaqom" kuylariga muvofiq kelishi Farobiy fikrining haqiqatligini isbotlaydi.

¹ Arastu. Poetika. Axloqi kabir. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 23,24.



*Ko'zungga tani notavonim fido,
Ravonbaxsh la'lingga jonim fido.
Jununim va aqlim g'aming sadqasi,
Ki o'lingda yaxshi-yamonim fido...*

Bu yerda so'z ma'nolari kuyga, musiqaga, musiqa esa so'zga, ma'noga aylanganini ko'ramiz¹. Farobiyning mana shu so'zlarida ham she'rda musiqiylik, ohangdorlikni kuchaytirishning elementar, shaklga doir qoidalarini bayon qilingan:

"She'r baytlarining har bo'lagidagi vazn tartibi bilan boshqa qismidagi tartib hamohang bo'lmog'i kerak. Natijada she'rning har bir bo'laklari bir-biriga barobar vaqtda o'qiladi". Farobiyning bu so'zlari she'r ritmikasi va uyg'unligini ta'minlashda miqdorlarning ahamiyati haqida pifagorchilarning ta'limoti to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. She'rda agar baytlar, vazn, ritm miqdorda bir xil, o'xshash bo'lmasa, she'r ohangi buziladi.

Muhammad Farobiy mimesis – taqlid faqat she'riyat-dagina emas, ritorikada – notiqlik san'atida ham mavjudligini aytar ekan, she'rda va dramada taqlid-o'xshatish zaruriy shart bo'lsa, notiqlik san'atida taqlid – aktyorday obrazga kirib, nutqni jonlantirishi kabi asosiy emas, yordamchi vosita ekanligini tushuntiradi. Qadimgi Yunonistonda ko'pchilik shoirlar mohir notiq, ba'zi notiqalar esa shoir bo'lganlar.

Muhammad Farobiyning quyidagi fikrlari ham Arastu "Poetika"si-ga hamohang: "Narsalarga taqlid etish: ham fe'l bilan, ham mulohaza bildirish (so'z san'ati) yo'li bilan amalga oshiriladi. Fe'l bilan yuzaga keladigan taqlid-o'xshatma ikki turli:

1. *Inson o'z qo'li bilan biror narsaga o'xshagan shaklni yasaydi, chunonchi inson bironing timsolini ishlab (tasvirlab), uni muayyan bir kishiga yoki boshqa biror narsaga (daraxt, tog', o'rmon, ohu, arslon, ot va hokazolarga) o'xshatmoqchi bo'ladi*².

Farobiy bu yerda rassomlik va haykaltaroshlik san'atini nazarda tutadi. Chindan ham rassom, musavvirlar rangtasvirda hayot manzaralarini, odamlarning turli holatlarini, qiyofalarini, xarakterla-

¹O'sha maqola.

²Arastu. Poetika. Axloqi kabir. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 23, 24.



rini ko'rsata oladilar. Haykaltaroshning ishi (tosh yo'nish qiyinroq bo'lgani uchun ularning tasvirlash maydoni) cheklanganroq. Lekin, davlat siyosatida haykalning martabasi balandroq, chunki faqat vatan uchun qahramonlik ko'rsatgan, buyuk ishlar qilgan shaxslarga bronza, mis yoki marmardan haykal qo'yiladi va bu asarlar necha ming yillar o'tsa ham yo'qolmaydi.

2. *"Yoki bo'lmasa, inson biror boshqa odamning xatti-harakatiga o'xshagan harakatlar qiladi"*. Farobiyning bu fikri komediya va tragediya aktyorligi, qisman raqs hamda muqallidlik san'ati haqida aytilgan. Chindan ham aktyor sahnada asar qahramoni ruhiyatiga kirib, o'sha tasvirlanayotgan insonday shodlanadi, qayg'uradi, sevadi, nafratlanadi, tasvirlanayotgan qahramonning yaxshi yoki yomon fe'l-atvorini o'xshatib ko'rsatadi. Aktyor sahnada hayotdagi qahramonga o'zini naqadar ishonarli o'xshatolsa, ya'ni aniq-ravshan taqlid qilolsa, u shunchalar iste'dodli hisoblanadi. Aniqroq aytganimizda, musavvirlar, shoirlar, adiblar va aktyorlarning o'z qahramonlariga taqlidi boshqa hodisa, bir shoir yo musavvirning boshqa shoir yo musavvirning uslubiga taqlid qilishi boshqa hodisadir. Birinchi taqlid – san'atkorlikni, ikkinchisi – salbiy ma'noni, iste'dod kamligini bildiradi¹.

She'riy nutqda ham notiqalar ijtimoiy, falsafiy, ilmiy fikr-mulohazalarni bildirishi mumkinligi haqida Farobiy bunday deydi: "Ko'pchilik shoirlar (hamda notiqalar) o'z (ilmiy) fikr-mulohazalarini boshqalarda qanoat hosil bo'ladigan darajada ifodalashga tug'ma qobiliyatli bo'ladilar. Ular o'sha qoniqarli mulohazalarini she'riy yo'l bilan ifoda etganlar. Buning oqibatida bular ko'pchilik nazdida she'r bilan bitilgani uchun uni she'riy asar sifatida qabul qilganlar. Aslida u xitobiy bir mulohaza bo'lib o'sha shoirlarning she'riy yo'ldan chekinib, xitobiy (ritorik) yo'lga mayl etganlari edi, xolos"².

Muhammad Farobiyning mana bu fikri esa badiiy nasrga taalluqlidir:

¹Mahkam Mahmudov. Farobiyning adabiy-nazariy qarashlari. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2011-yil, 3-son.

²O'sha manba.



"Bordi-yu, so'zlar biror narsaga taqliddan tashkil topgan bo'lsa-yu, lekin ular biror ohang bilan vaznga tushirilgan bo'lmasa, unday tizma so'zlar she'r sanalmaydi, balki bundaylar she'riy mulohaza deb yuritiladi". (Bu yerda poetik so'z, proza ma'nosida)

Arastu esa "Poetika"da boshqacharoq fikr yuritgan: "Biroq vaznli so'z yordamida (ya'ni, taqlidsiz, faqat so'z yordamida) yoxud yalang'och (vaznsiz va o'xshatishlarsiz) so'z yordamida tasvirlash san'ati hozirgacha ta'riflanmay qolayotir... Shunday ekan, biz Sofron va Ksenarx mimlariga ham, Suqrotona suhbatlarga ham umumiy nom berolmaymiz²".

Umuman olganda, Farobiyning fikricha, Arastu poetikasining mag'zi, asosi – mimesis (tasvir, aks ettirish ma'nosidagi) taqlid, hayotga o'xshatish bilan, hatto san'at, adabiyotning asosiy yo'li – hayotni (hayotdagi o'xshash qiyofalarni, obrazlarni, xarakterlarni) haqqoniy aks ettirish – realizm bilan bog'liqdir. Biroq hayotning o'xshashini tasvirlash, hayotdan oddiy nusxa ko'chirish emas, balki ijodkorning hayotni qanday idrok etishi, hissiyotlari, tuyg'ulari bilan bog'liqdir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Farobiy hayoti va faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Farobiyning adabiy-nazariy qarashlarining poetika ilmidagi ahamiyati.
3. Farobiyga "Muallimi soniy" unvoni nima uchun berilgan?
4. Farobiyning adabiyotshunoslikka oid asarlarini ayting?
5. "Shoirilar san'ati qonunlari haqida" asarida shoirilar necha toifaga ajratilgan?
6. "She'r san'ati" asari haqida gapiring?
7. Farobiy so'z haqida qanday fikr bildirgan?
8. Farobiy davrida she'r ilmining qaysi jihatlari muhim sanalgan?
9. Arastu va Farobiy adabiy qarashlarini qiyosiy tahlil qiling?
10. Shoirning she'rda so'zga munosabati qanday bo'lishi kerak?

¹ Farobiy. She'r san'ati. – T., 1979. – B.14.

² Arastu. Poetika. –T.: Yangi asr avlodi, 2004. –B. 21.



Adabiyotlar:

1. Farobiy. She'r san'ati. – T., 1979. 13-bet.
2. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. –B. 23-24.
3. Mahkam Mahmudov. Farobiyning adabiy-nazariy qarashlari. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2011-yil, 3-son.
4. Nasimxon Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrdan XV asrgacha). O'quv qo'llanma. – T., 2017.



MUNDARIJA

So'zboshi.....	3
Adabiyotshunoslikka oid fanlar tizimida mumtoz tarixiy poetikaning o'rni	4
Mif poetikasi.....	14
Sinkretizm davri poetikasi.....	22
Tarixiy poetika va folklor.....	31
Aristotelning adabiy-nazariy qarashlari.....	41
Farobiyning adabiy-nazariy qarashlari	47
Beruniyning adabiy-nazariy qarashlari.....	58
Turkiy poetika	72
Tarixiy manbalar va adabiy janrlar munosabati.	
Hikoyatlar poetikasi	80
Adabiy tur poetikasi.....	95
Adabiy janrlar poetikasi.....	109
Baytga va bandga asoslangan she'r shakllari.....	119
Debochalar va ularning nazariy qarashlar tarixida tutgan o'rni ...	126
Ramziy obrazlar poetikasi	134
Badiiy obraz poetikasi	149
An'anaviy syujet, obraz va motivlarning mumtoz poetikadagi o'rni	157
Atoulloh Husayniyning "Badoye' us-sanoye'" asarida badiiy san'atlar zikri	169
Qofiya ilmi poetikasi	174
Tazkiralalar va ularning xususiyatlari	187
Abdurauf Fitratning adabiy-poetik qarashlari	200
Mumtoz badiiy nasrning shakllanish bosqichlari.....	209
"Funun ul-balog'a" – nodir manba.....	223
Nizomiy Aruziy. She'r ilmi mohiyati haqida	231
Mumtoz poetika masalalarida an'anaviylik va izdoshlik	239
XIII–XV asr boshlarida nazariy qarashlar taraqqiyoti.....	252
Alisher Navoiy va mumtoz poetika masalalari.....	262

Zahiriddin Muhammad Boburning poetikaga oid qarashlari	278
Mumtoz poetika manbalari va ular asosida badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	289
Mumtoz badiiy matnda timsollar tizimining tahlili	299
Mumtoz poetikada badiiy nutq.....	306
Mavzular bo'yicha test topshiriqlari (I-S).....	315
Mavzular bo'yicha test topshiriqlari (II-S).....	335
Glossary.....	358

O'quv nashri

MARG'UBA ABDULLAYEVA

MUMTOZ TARIXIY POETIKA

*(70111401 – O'zbek tili va adabiyoti ixtisosligi
magistratura yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma)*

Muharrir *O'tkir Yo'ldoshev*
Badiiy muharrir *Dilmurod Jalilov*
Musahhih *O'tkir Yo'ldoshev*
Kompyuterda sahifalovchi *Zilola Aliyeva*

Nashr. lits. AI № 290.04.11.2016
Bosishga 2023-yil 9-noyabrda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Times New Roman garnituras.
Ofset bosma. 23,0 shartli bosma toboq. 22,5 nashr tobog'i.
Adadi 1000 nusxa. 158-raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

Telefon: (371) 241-35-47, 241-48-62, 241-83-29
Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz info@gglit.uz.



G'AFUR G'ULOM

nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi



ISBN 978-9910-9961-1-5

